N. ABDURAHMONOVA, L. O‘RINBOYEVA

MATEMATIKA

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining
2-sinfi uchun darslik

Uchinchi nashri

O‘zbekiston Respublikasi
Xalq ta’limi vazirligi tasdiqlagan



TOSHKENT
«Yangiyo‘l Poligraf Servis»
2016

УДК 51(075)
ББК 22.1
A15 Abdurahmonova, Nabiya
Matematika: 2-sinf uchun darslik/N. Abdurahmonova, L. O‘rinboyeva; ma’sul muharrir M. Jumayev. -Toshkent: O‘zbekiston, 2016. - 208 b.

КБК 22.1ya71
ISBN 978-9943-01-837-2 УДК 51(075)

Mas’ul muharrir:
Mamanazar Jumayev — Nizomiy nomidagi TDPU professori, pedagogika fanlari nomzodi.

Taqrizchilar:
Shukur Qayumov — Beruniy nomidagi TDTU dotsenti, fizika-matematika fanlari nomzodi;
Nazira Ahmedova — RTM boshlang‘ich ta’lim bo‘limi boshlig‘i;
Ziyoda Payziboyeva — Toshkent shahar 41-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.

Shartli belgilar:

— multimediyali ilova

— og‘zaki bajarish uchun mashqlar

1, 2, 3 ... — yozma bajarish uchun mashqlar

— katta, kichik, teng belgilarini qo‘yish

— bo‘sh kataklarga kerakli raqam yoki ishoralarni qo‘yish

— o‘ylab top!

— uy vazifasi uchun topshiriqlar

— darsning tugashi

ISBN 978-9943-01-837-2
© «Yangiyo‘l Poligraf Servis» MChJ, 2012, 2016
© N. Abdurahmonova, L. O‘rinboyeva, 2012, 2016

1-SINFDA O‘TILGAN MATERIALLARNI TAKRORLASH VA UMUMLASHTIRISH

1. 1) 10, 12, 14, 16, 18, 20 sonlaridan bitta oldin keladigan qo‘shni sonlarni ayting;
2) 11, 13, 15, 17, 19 sonlaridan bitta keyin keladigan qo‘shni sonlarni ayting.

2. Rasm asosida masala tuzing va uni yeching:

6 ta

?, 4 ta ortiq

3. Ikkinchi sinfda 32 nafar o‘quvchi bor. Ularning 12 nafari qiz bola, qolganlari esa o‘g‘il bola. Sinfda necha nafar o‘g‘il bola bor?

4.

20 + 20	80 – 40	50 + 10	60 + 40
40 – 10	30 + 20	70 – 20	90 – 50

5. Hamma shakllar bir so‘z bilan qanday nomlanadi?

1)  2) 3) 4) 

6. Ertalab do‘konga 29 l sut keltirildi. Tushgacha 20 l sut sotildi. Do‘konda necha litr sut qoldi?

7.

$37-7$	$40+9$	$58-50$	$94-90$
$20+8$	$16-6$	$30+10$	$62-40$

1. Misolning yechilishini tushuntiring:

$67+3=\square\square$

$60 \quad 7+3$

$60+(7+3)=60+10=70$

2. Hayvonot bog‘iga birinchi sinfdan 27 nafar o‘quvchi, ikkinchi sinfdan esa undan 3 nafar ortiq o‘quvchi bordi. Hayvonot bog‘iga ikkinchi sinfdan necha nafar o‘quvchi borgan?

3. Namuna bo‘yicha bajaring: $65=60+5$.

$57=50+\square$	$32=30+\square$	$78=70+\square$
$45=40+\square$	$96=90+\square$	$29=20+\square$

4. Har bir shaklda nechtadan uchburchak bor?

  

5. Rasm bo‘yicha masala tuzing va uni yeching:



6. Sonlarning yig‘indisini toping:

26 va 4; 38 va 2; 57 va 3; 69 va 1

7.

47 + 3	68 − 60	36 + 4	87 + 3
54 + 4	26 − 20	77 − 7	58 + 2

1. Misolning yechilishini tushuntiring:

$38 - 30 = \square$

30 8

$(30 - 30) + 8 = 0 + 8 = 8$

2.

46 − 20	59 − 50	48 + 2	37 + 3
27 − 20	63 − 60	64 + 6	26 + 4

3. Duradgor 38 ta taxtani randalashi kerak edi. U bir kunda 30 ta taxtani randalagani aniqlandi. Duradgor yana nechta taxtani randalashi kerak?

4. Birinchi kesma ikkinchi kesmadan necha santimetr qisqa? Ikkinchi kesma birinchi kesmadan necha santimetr uzun?

5. Rasm asosida masala tuzing va uni yeching:

Bor edi	Sotildi	Qoldi
18 kg anjir	10 kg anjir	? kg

6. Uchta sonning yig‘indisi 96. Birinchi son 42, ikkinchi son 24. Uchinchi sonni toping.

7.

70 − 30	19 + 10	58 + 2	47 + 3
50 + 40	29 − 20	36 + 4	24 + 6

1. Misollarning yechilishini tushuntiring:

57 + 32 = □□	57 − 32 = □□
7 + 2 = 9	7 − 2 = 5
50 + 30 = 80	50 − 30 = 20
80 + 9 = 89	20 + 5 = 25

2. Qo‘shiqlar tanloviga 37 nafar qiz bola va 22 nafar o‘g‘il bola qatnashdi. Qo‘shiqlar tanloviga hammasi bo‘lib necha nafar bolalar qatnashgan?

3. Rasmda tasvirlangan har bir shaklning nomini ayting. Har bir shaklning nechta tomoni bor?



4. «Neksiya» mashinasining bakida 47 l benzin bor edi. Safar vaqtida 32 l benzin sarflandi. Mashinada necha litr benzin qolgan?

5. Jadvaldan javobi bir xil bo‘lgan misollarni toping:

47 − 22	20 + 20	44 + 15	60 + 40
83 + 17	38 − 30	68 − 43	58 − 50
90 − 50	67 + 3	37 + 22	38 + 32

6. 70 bilan 30 ning, 60 bilan 20 ning yig‘indisini va shu sonlarning ayirmasini toping.

7.

37 + 12	67 + 22	57 − 32	25 + 14
37 − 12	67 − 22	57 + 32	25 − 14

1. Qaysi usul qulay?

96 − 44 = □□

6 − 4 = 2
90 − 40 = 50
50 + 2 = 52
96 − 44 = 52

96 − 44 = □□

96 − 40 = 56
56 − 4 = 52
96 − 44 = 52

2. Anor solingan yashik 12 kg, uzum solingani esa undan 2 kg yengil. Uzum solingan yashik necha kilogramm?

12 kg

?, 2 kg yengil

3.

87 − 34	90 − 50	98 − 64	58 − 32
38 − 12	70 − 30	29 − 13	46 − 24

4. Har qaysi berilgan sonlardan oldin va keyin kelgan sonlarni yozing:

5. O‘yinchoqlar nechta ortiq yoki nechta kamligini toping.



6. Bir to‘pda 18 m atlas bor edi. Undan 8 m atlas qirqib olindi. To‘pda necha metr atlas qoldi?

7.

$78-70$	$89+1$	$(54-34)+20$
$39-30$	$28+2$	$(60+23)-80$

QO‘SHISHNI TEKSHIRISH

1.

$6+4=10$
$10-6=4$
$10-4=6$

Qo‘shishni tekshirish uchun yig‘indidan qo‘shiluvchilarning birini ayirish kerak. Agar ayirmada ikkinchi qo‘shiluvchi hosil bo‘lsa, javob to‘g‘ri bo‘ladi.

$48+2=50$ *Tekshirish:* **$50-2=48$**

2. Misollarni yeching va natijaning to‘g‘riligini tekshiring:

34 + 12	41 + 27	62 + 3	56 + 22
26 + 13	27 + 11	57 + 3	44 + 32

3. Masalalarni yeching:

1) Issiqxonada 60 ta oq va 40 ta qizil atirgul ochilgan edi. Issiqxonada hammasi bo‘lib nechta atirgul ochilgan?

2) Issiqxonada 100 ta atirgul ochilgan edi. Xaridor kelib 60 ta atirgulni olib ketdi. Nechta atirgul qoldi?

4.

Qo‘shiluvchi	60	32	24	50	26	14	57
Qo‘shiluvchi	40	8	13	5	32	6	32
Yig‘indi							

5. Rasm asosida masala tuzing va uni yeching:

10 kg 8 kg

? kg

40 kg ? kg

70 kg

6. 60 bilan 40, 50 bilan 30, 40 bilan 20 ning yig‘indisini va shu sonlarning ayirmasini toping.

7.

47 + 3	60 + 30	36 + 4	54 + 6
58 − 8	39 − 30	27 − 7	63 − 3

AYIRISHNI TEKSHIRISH

1.

16 − 4 = 12 12 + 4 = 16

Ayirishni tekshirish uchun ayirmaga ayriluvchini qo‘shish kerak. Agar yig‘indida kamayuvchi hosil bo‘lsa, javob to‘g‘ri bo‘ladi.

67 − 6 = 61 Tekshirish: 61 + 6 = 67

2. Misollarni yeching va natijaning to‘g‘riligini tekshiring:

58 − 25 35 − 4 88 − 7 75 − 3

3. Masalalarni yeching:

1) Bir to‘pda 90 m gazlama bor edi. Ko‘ylak tikish uchun 50 m gazlama qirqib olindi. To‘pda necha metr gazlama qoldi?

2) Bir to‘p gazlamadan 50 m qirqib olingandan so‘ng 40 m gazlama qoldi. Dastlab to‘pda necha metr gazlama bo‘lgan?

4.

Kamayuvchi	90	80	38	57	96	70	49
Ayriluvchi	50	30	30	32	44	10	24
Ayirma							

5. Rasm asosida quyidagi ifodalar bilan yechiladigan masala tuzing:

6 kg

4 kg

□ + □

□□ − □

6. Bir ustunga qo‘shish amali bilan, ikkinchi ustunga ayirish amali bilan berilgan ifodalarni yozing va ularning qiymatlarini toping:
$50+30$, $90-40$, $57+3$, $28-20$, $57+12$, $76-34$.

7.

$66-44$	$96-36$	$58+22$	$74+23$
$55+20$	$87-47$	$57-32$	$74-23$

TO‘G‘RI BURCHAK

1. To‘g‘ri burchaklar.

To‘g‘ri burchakdan katta va kichik burchaklar.



Bitta burchagi to‘g‘ri burchak, qolgan ikkita burchagi to‘g‘ri burchak bo‘lmagan uchburchak shaklidagi chizg‘ich **go‘niya deb ataladi**.

Go‘niya yordamida ko‘pburchaklardagi to‘g‘ri burchaklarni aniqlang:
1) 2) 3) 4)

2. Qisqa yozuv bo‘yicha masala tuzing va uni yeching:
Bor edi — 38 kg bodring
Tuzlandi — 30 kg bodring
Qoldi — ? kg bodring



3. Misollarni yeching.

90 − 70	76 + 24	49 + 1	39 − 30
46 − 40	45 + 20	38 + 2	51 + 19

4. Go‘niya yordamida burchaklarning turlarini aniqlang:



1) to‘g‘ri burchakdan kichik burchaklarning tartib raqamini yozing;
2) to‘g‘ri burchakdan katta burchaklarning tartib raqamini yozing.

5. Daftaringizga shunday to‘g‘ri burchaklar chizing:

6. Oshxonaga 18 ta choynak, 20 ta piyola keltirildi. Oshxonaga hammasi bo‘lib nechta idish keltirilgan?

7.

40 + 25	52 − 30	57 + 32	80 − 50
68 − 60	30 + 12	96 − 44	50 + 30

KO‘PBURCHAK PERIMETRI

1. Bu to‘rtburchaklarning hamma burchaklari to‘g‘ri burchak:



Ko‘pburchakning barcha tomonlari uzunliklari yig‘indisi uning perimetridir.

To‘rtburchakning perimetrini toping:



$8+3+6+2=19$ (sm)

2.

$46+20$	$74-30$	$67+10$	$59-50$
$50+35$	$60+20$	$57-32$	$36-24$

3. Qisqa yozuv bo‘yicha masala tuzing va uni yeching:

1- savatda — 8 kg
2- savatda — 10 kg) ? kg



4. Har bir shaklning perimetrini toping:





5. $90 - 50 \square 40$ $\quad 60 + 40 \square 50$ $\quad 57 + 3 \square 70$
$38 + 20 \square 70$ $\quad 48 + 2 \square 30$ $\quad 53 + 7 \square 60$

6. Bir to‘pda 48 m, ikkinchi to‘pda undan 8 m kam shoyi bor. Ikkala to‘pda necha metr shoyi bor?

7. $43 + 30$ $\quad 64 - 20$ $\quad 57 + 3$ $\quad 28 - 8$
$43 - 30$ $\quad 64 + 20$ $\quad 57 - 7$ $\quad 20 + 8$

O‘TILGANLARNI MUSTAHKAMLASH

1. Rasm asosida masala tuzing va uni yeching:

Bor edi	Ishlatildi	Qoldi
	ertalab – 12 kg tushlikda – 14 kg	? kg

2. Namuna bo‘yicha bajaring: $53 = 50 + 3$.
$76 = 70 + \square$ $\quad 44 = 40 + \square$ $\quad 39 = 30 + \square$
$96 = 90 + \square$ $\quad 28 = 20 + \square$ $\quad 67 = 60 + \square$

3. 1) Daftarga quyidagi siniq chiziqni chizing:



2) siniq chiziqda nechta bo‘g‘in borligini aniqlang;
3) barcha bo‘g‘in uzunliklarining yig‘indisini toping.

4. 4, 5, 9 raqamlari yordamida 9 ta ikki xonali sonni yozish mumkin: 44, 45, 49, 54, 55, 59, 94, 95, 99.

3, 7, 8 raqamlari yordamida hosil qilish mumkin bo‘lgan barcha ikki xonali sonlarni yozing.

5. Hisoblang:

6. 50 sm + 40 sm 70 dm − 20 dm
20 dm − 10 dm 50 so‘m + 50 so‘m

7. Birinchi shaklda 3 ta cho‘pning o‘rnini shunday o‘zgartiringki, 4 ta kvadrat hosil bo‘lsin. Ikkinchi shakldan 3 ta cho‘pni shunday olingki, 4 ta kvadrat qolsin.





8. Traktorning bakida ish boshlanganda 48 litr yonilg‘i bor edi, ish oxiriga kelib 8 litr yonilg‘i qoldi. Necha litr yonilg‘i ishlatilgan?

9. (40 + 10) + 6 (16 + 14) + 7 83 + 17
(30 − 20) + 9 (70 − 30) + 5 25 + 25

18 ICHIDA BIR XONALI SONLARNI O‘NLIK ORQALI O‘TIB QO‘SHISH

1. 10 sonini hosil qilish uchun darchalar ichiga qaysi sonlarni qo‘yish kerak?





□+2

9+2=□□

9 ga 2 ni qo‘shish uchun 2 soni bo‘laklab qo‘shiladi. Bu quyidagicha bajariladi:

a) Avval 10 sonini hosil qilish uchun qancha kerak bo‘lsa, shuncha qo‘shiladi: 9+1=10

b) 2 — bu 1+1 ekanligi ma’lum. 9 ga 1 qo‘shildi, 10 hosil bo‘ldi. 10 ga yana 1 ni qo‘shish kerak. Demak, 10+1=11 bo‘ladi.

9 + 2 = 11 (1 1)

9 + 2 = □□ (1 1)

9+1+1=11

2. Dilshodning 9 ta yong‘og‘i bor edi. Akasi unga yana 2 ta yong‘oq berdi. Dilshodda nechta yong‘oq bo‘ldi?

3. Misollarni yeching:

34 + 20	40 − 20	54 + 30
28 + 12	60 − 40	60 − 20
42 + 25	30 − 10	46 + 14

4. Qisqa yozuv asosida masala tuzing va uni yeching:

1) Ertak kitoblar – 9 ta
She'riy kitoblar – 2 ta
? ta

2) Ertak kitoblar – 9 ta
She'riy kitoblar – ?, 2 ta ortiq

5. Chizg'ich yordamida ko'pburchaklarning tomonlarini o'lchang:

1)

2) 

3) 

4)

6. Hunarmand 9 ta beshik, undan 2 ta ko'p belanchak yasadi. Hunarmand qancha belanchak yasagan?

7. Akbar chizgan kesmaning uzunligi 7 sm ga teng, akasi chizgan kesma esa undan 2 sm uzun. Akasi chizgan kesmaning uzunligi necha santimetr?

8.

(40 − 20) + 8	(56 − 6) + 3	20 + (8 − 3)
(54 − 4) + 7	(39 − 9) + 2	50 + (9 − 4)
(30 + 20) − 9	(23 + 7) − 6	60 − (7 + 3)

1.



Yodingizda tuting:

9+2=11 9+3=12 8+3=11

2. Bir likopchada 9 ta, ikkinchi likopchada 3 ta shirin kulcha bor. Ikkala likopchada nechta shirin kulcha bor?

3. 8 + 2 8 + 3 9 + 2 9 + 3

4. Rasm asosida masala tuzing va uni yeching:

? ta

9 kg 3 kg

? kg

5. 8+3□11 9+2□12 9+3□11

6. Nargizaning onasi 8 ta katakli, 3 ta bir chiziqli daftar olib keldi. Nargizaning onasi hammasi bo‘lib nechta daftar olib kelgan?

7.

3 + 9	28 − 8	48 + 2	87 + 3
3 + 8	54 + 6	65 − 5	68 + 2

1.



Yodingizda tuting:

9+4=13 8+4=12 7+4=11

2. Bo‘yoqchi birinchi kuni 7 ta eshikni, ikkinchi kuni undan 4 ta ortiq eshikni bo‘yadi. Bo‘yoqchi ikki kunda hammasi bo‘lib nechta eshikni bo‘yagan?

3. Qisqa yozuv asosida masala tuzing va uni yeching:

Bor edi — 8 ta
Qo‘shildi — 4 ta
? ta

4. 8+4□12 7+4□12 9+4□11

5.



6. Nasiba 9 yoshda, akasi esa undan 4 yosh katta. Akasi necha yoshda?

7.

3 + 7	29 − 7	33 − 30	56 + 4
2 + 9	31 + 9	72 − 70	24 + 6

1.



Yodingizda tuting:

9+5=14 8+5=13 7+5=12 6+5=11

2.

6+4	9+4	8+4	7+4
8+3	7+3	9+3	9+2

3. Rasm asosida masala tuzing va uni yeching:

□+□=□□

4. Namuna bo‘yicha bajaring: 11 = 9 + 2.

11=6+□	13=9+□	11=7+□
11=8+□	12=8+□	14=9+□
12=7+□	13=8+□	12=9+□

5. Siniq chiziqni chizg‘ich yordamida o‘lchang:

6. Abdug‘ani 9 ta oq, 5 ta kulrang quyon parvarish qilmoqda. Abdug‘ani hammasi bo‘lib nechta quyon parvarish qilmoqda?

7.

50 − 46	40 + 7	60 + 40	32 + 8 − 10
38 − 30	64 + 6	90 − 50	16 − 6 + 10

1. Jadval asosida berilgan misollarni yeching:

9 + 2	8 + 2	7 + 3	9 + 4
8 + 4	9 + 5	8 + 3	6 + 5
8 + 5	9 + 3	7 + 4	7 + 5

2. Tomda 8 ta kaptar bor edi. Yana 5 ta kaptar ular yoniga kelib qo‘shildi. Hamma kaptarlar nechta bo‘ldi?

3.



4. Shunday son qo‘yingki, tenglik to‘g‘ri bo‘lsin:

9 + □ = 11	8 + □ = 12	8 + □ = 13
8 + □ = 11	9 + □ = 12	9 + □ = 13

5. Qisqa yozuv asosida masala tuzing va uni yeching:

Murodda — 7 ta jo‘ja
Sanjarda — 5 ta jo‘ja
? ta jo‘ja

6. Sonlarning yig‘indisini toping:

8 va 5; 8 va 4; 7 va 5; 6 va 5; 8 va 3; 9 va 2.

7.

62 + 34	46 + 4	30 + 40	53 + 7
47 − 22	59 − 9	70 − 20	27 + 3

1.



□ + 6

9 + 6 = □□

1 5

9 + 1 + 5 = 15

Yodingizda tuting:

9 + 6 = 15 8 + 6 = 14 7 + 6 = 13 6 + 6 = 12

2.

8 + 4	9 + 5	7 + 5	6 + 4
8 + 5	9 + 2	7 + 4	6 + 5

3. Sport to‘garagiga 9 ta futbol va 6 ta basketbol to‘pi sotib olindi. To‘garak uchun hammasi bo‘lib nechta to‘p sotib olingan?

4. Misollarning yechilishini tushuntiring:





5. Jadval asosida masala tuzing va uni yeching:

Bor edi	Ishlatildi	Qoldi
 20 kg olcha	murabboga — 9 kg sharbatga — 6 kg	? kg

Yechish: 1) $9+6=\square\square$ kg ishlatilgan olcha;
2) $20-15=\square$ kg qolgan olcha.
Javob: $\square$ kilogramm olcha qolgan.

6. Shakllarni daftaringizga chizing va ularning nomini yozing.

1) 
2) 
3)
4) 

7. $(60-50)+5$ $(8+6)-4$ $(9+5)-14$
$(40+20)-10$ $(9+3)+3$ $(7+6)-13$

1.

7	
6	
	5
4	
	3



$9+7=\square\square$

1 6

$9+1+6=16$

$\square+7$

Yodingizda tuting:

$9+7=16$ $8+7=15$ $7+7=14$

2. Namuna bo‘yicha bajaring: 13 = 7 + 6.

14 = 9 + □	15 = 9 + □	16 = 9 + □
15 = 8 + □	14 = 8 + □	12 = 8 + □

3. Sinf kutubxonasi uchun 9 ta hikoya, 7 ta ertak kitobi sotib olindi. Sinf kutubxonasi uchun hammasi bo‘lib nechta kitob sotib olingan?

4. Misollarning yechilishini tushuntiring:





5. Rasm asosida bunday yechiladigan masalalar tuzing:

10 l + 5 l, 10 l + 2 l, 5 l + 2 l, 10 l − 5 l, 10 l − 2 l.

10 l

5 l

2 l

6. Bir guruh bog‘cha bolalari plastilindan 8 ta kuchukcha va undan 7 ta ortiq mushukcha yasashdi. Bolalar hammasi bo‘lib nechta o‘yinchoq yasashgan?

7.

96 − 44	38 + 2	89 − 59	54 + 30
65 + 10	67 − 7	25 + 20	54 − 30

1.

8	
7	
	6
5	
	4



□+8

8+8=□□

2 6

8+2+6=16

9	
8	
	7
6	
	5



□+9

9+9=□□

1 8

9+1+8=18

Yodingizda tuting:

8+8=16 9+8=17 9+9=18

2. 9+6 8+6 9+4 7+7

9+5 9+7 8+5 8+4

3. Bir haftada birinchi hunarmand 9 ta sandiq, ikkinchisi esa 8 ta sandiq yasadi. Ikkala hunarmand birgalikda nechta sandiq yasashgan?



4. Jadval asosida misollar tuzing va ularni yeching:

Qo‘shiluvchi	8	8	9	7	9	9	6
Qo‘shiluvchi	8	7	7	7	9	8	6
Yig‘indi							

5. $8+7 \square 16$ $\quad 9+8 \square 17$ $\quad 9+7 \square 14$

$9+9 \square 17$ $\quad 8+7 \square 15$ $\quad 7+7 \square 16$

6. Elnur birinchi kuni 9 bet, ikkinchi kuni 8 bet kitob o‘qidi. Elnur shu ikki kun ichida necha bet kitob o‘qigan?

7. $20+(30-10)$ $\quad (34+20)-4$ $\quad (9+8)-7$

$80-(60+10)$ $\quad (28-8)+9$ $\quad (9+9)+2$

QO‘SHISH JADVALI

1. Bir xonali sonlarni qo‘shish jadvali.

+	1	2	3	4	5	6	7	8	9
2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
4	5	6	7	8	9	10	11	12	13
5	6	7	8	9	10	11	12	13	14
6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
7	8	9	10	11	12	13	14	15	16
8	9	10	11	12	13	14	15	16	17
9	10	11	12	13	14	15	16	17	18

Namuna:

$4+5=9$

$7+8=15$

2. Anvar bobosi bilan birga o‘z hovlisiga 8 tup olcha, 7 tup olma ko‘chati o‘tqazishdi. Ular hammasi bo‘lib necha tup ko‘chat o‘tqazishgan?

3. Jadvaldan javobi bir xil bo‘lgan misollarni toping:

7+5	9+2	8+6	9+4
6+6	8+5	9+3	7+6
9+5	7+7	6+5	8+4

4. Rasm asosida masala tuzing va uni yeching:

1)

9 m arqon

?, 2 m ortiq arqon

Yechish: 9+2= □□ m

Javob: Ikkinchi o‘ramdagi arqon □□ metr.

2)

9 m arqon

?, 2 m ortiq arqon

? m

Yechish: 1) 9+2 = □□ m

2)11+9= □□ m

Javob: Ikkala o‘ramdagi arqon □□ metr.

5. Misollarni yeching va javoblarini o‘sib borish tartibida yozing:

6. Sada daraxtining balandligi 9 m, terak sadadan 3 m baland. Terak necha metr?

7.

9+3	9−8	40+29	89−62
8+4	8+7	28−14	57−17

TO‘G‘RI TO‘RTBURCHAK TOMONLARINING XOSSALARI

1.

Hamma burchaklari to‘g‘ri bo‘lgan to‘rtburchak **to‘g‘ri to‘rtburchak deb ataladi.**

To‘g‘ri to‘rtburchakning qarama-qarshi tomonlari bir-biriga teng bo‘ladi.

To‘g‘ri to‘rtburchakning to‘rtta uchi, to‘rtta burchagi, to‘rtta tomoni bor.

2.

9+7	7+5	36+4−10	29+1+7
8+6	6+6	57+3−20	48+2+9

3. Ko‘pburchaklardagi to‘g‘ri, undan katta va kichik burchaklarni aniqlang:

1) 
2) 
3) 
4) 

4. Hovuzda 9 ta o‘rdak suzib yurgan edi. Yana bir nechta o‘rdak kelib qo‘shilgandan keyin, hovuzdagi o‘rdaklar 14 ta bo‘ldi. Nechta o‘rdak kelib qo‘shilgan?

5. Amal ishoralarini tengliklar to‘g‘ri bo‘ladigan qilib qo‘ying:

40□5=45	59□9=50	80□3=83
27□7=20	60□4=64	39□9=30

6. 1) 19, 29, 39, 49, 59, 69, 79, 89, 99 sonlaridan bitta keyin keladigan qo‘shni sonlarni yozing;
2) 90, 80, 70, 60, 50, 40, 30, 20, 10 sonlaridan bitta oldin keladigan qo‘shni sonlarni yozing.

7.

8 + 8	9 − 7	37 + 3 − 5	22 + 8 + 4
9 + 5	7 + 6	46 + 4 − 2	57 + 3 + 5

KVADRAT

1. Har qaysi shaklning nomini ayting:



Bu shakl — kvadrat.
Kvadratning to‘rtta uchi, to‘rtta burchagi, to‘rtta tomoni bor.
Barcha tomonlari bir-biriga teng bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchak **kvadrat deb ataladi**.

2. Shunday kvadrat chizing va uning perimetrini toping:



3.

39 + 1	86 − 34	9 + 4
56 − 6	42 + 8	8 + 3
23 + 7	74 + 6	7 + 5

4. Sirk tomoshasida 9 ta ot va 8 ta kuchukcha qatnashdi. Tomoshada hammasi bo‘lib nechta uy hayvonlari qatnashgan?

5. Misollarni qulay usul bilan hisoblang:
1) 1+2+3+4+6+7+8+9;
Namuna: 1+9=10; 2+8=10; 3+7=10; 4+6=10.
10+10+10+10=40. 1+2+3+4+6+7+8+9=40.
2) 2+4+6+8+12+14+16+18;
Namuna: 2+18=20

6. Fermer xo‘jaligida ertalab bir sigirdan 16 l, ikkinchi sigirdan unga qaraganda 4 l ortiq sut sog‘ib olindi. Ikkala sigirdan necha litr sut sog‘ib olingan?

7.

40+27	76+13	38−30	(8+7)−5
57+22	22+13	29−20	(9+8)+3

1. Jadval asosida berilgan misollarni yeching:

9+9	6+5	8+4	6+6
8+3	7+6	9+7	8+5
7+7	8+7	7+5	9+4

2. Bir to‘p beqasamdan katta yoshdagilar to‘ni uchun 7 m, bolalar to‘ni uchun esa 4 m qirqib olindi. Bir to‘pdan necha metr beqasam qirqib olingan?

3. Amal ishoralarini tengliklar to‘g‘ri bo‘ladigan qilib qo‘ying:

8 ☐ 4=12	9 ☐ 6=3	9 ☐ 2=11
7 ☐ 4=11	9 ☐ 2=7	6 ☐ 5=11

4. Har bir shaklda nechtadan sanoq cho‘p ishlatilgan?



5. 50 sm − 20 sm 70 dm + 10 dm
40 dm + 10 dm 60 sm − 30 sm

6. Akbar otasi bilan dehqon bozoridan 9 kg olma, 5 kg o‘rik sotib olishdi. Ular mevalardan qancha sotib olishgan?

7. 9 + 4 (37 − 30) + 40 (60 + 20) + 3
8 + 5 (50 + 20) + 19 (80 − 40) + 5

O‘TILGANLARNI MUSTAHKAMLASH

1. Jadval asosida misollar tuzing va ularni yeching:

Qo‘shiluvchi	9	8	7	9	8	6	7
Qo‘shiluvchi	3	4	5	2	5	6	4
Yig‘indi							

2. Bir laganda 9 ta nok, ikkinchi laganda esa 7 ta shaftoli bor. Noklar shaftolidan nechta ko‘p? Shaftoli nokdan nechta kam?

3. 50 + 27 28 − 20 43 + 17 65 − 60
27 + 50 39 − 30 17 + 43 78 − 70

4. Misollarni tushuntirib yeching:



5. Rasmlar bo‘yicha shunday yechiladigan masalalar tuzing:

10+6; 10−6; 10+4; 10−4; 10+6+4.

6. Shunday son qo‘yingki, tenglik to‘g‘ri bo‘lsin:

8+□=16	9+□=13	9+□=17
9+□=18	9+□=15	8+□=14

7. Maktab oshxonasida 9 ta stol bor edi. Yana 8 ta stol qo‘yildi. Oshxonada jami stollar nechta bo‘ldi?

8.

62+8	85−5	76+24	60+40
43+7	38−8	57+32	90−50

18 ICHIDA BIR XONALI SONLARNI O‘NLIK ORQALI O‘TIB AYIRISH

1.



11 − □

11 dan 6 sonini ayirish uchun 6 soni bo‘laklab ayiriladi. Bu quyidagicha bajariladi:

Birinchi usul. 1) Dastlab 10 hosil bo‘lishi uchun 11 dan 1 sonini ayirish kerak:

11 − 1 = 10

2) 6 — bu 1 + 5 ekanligi ma’lum. 11 dan 1 ayirildi, yana 5 ni ayirish kerak.

Demak, **10 − 5 = 5**

Buni shunday yozish mumkin:

11 − 6 = 5 yoki 11 − 6 = 5

1 5 11 − 1 − 5 = 5

Ikkinchi usul. 11 — bu 6 + 5 dan iborat bo‘lgani uchun misolni bunday yechish mumkin:

11 − 6 = 5 11 − 5 = 6

Qisqacha bunday yoziladi:

11 − 6 = 5 11 − 5 = 6

6 5 5 6

2. Shunday son qo‘yingki, tenglik to‘g‘ri bo‘lsin.

9 + □ = 11	11 − □ = 5	8 + □ = 15
7 + □ = 11	11 − □ = 6	9 + □ = 14

3. Oziq-ovqat do‘koniga 16 quti konfet va pecheniy keltirildi. Konfetlar 6 quti bo‘lsa, necha quti pecheniy keltirilgan?

4.

29 + 1	57 + 3	64 + 6	36 + 4
48 + 2	16 + 4	75 + 5	13 + 7

5. Qisqa yozuv bo‘yicha masala tuzing va uni yeching:

1-likopchada — 11 ta
2-likopchada — ?, 6 ta kam

Yechish: $11-6=\square$ ta olma.
Javob: Ikkinchi likopchada $\square$ ta olma bor.

6. Ikkita kesma chizing. Birining uzunligi 7 sm, ikkinchi kesma undan 4 sm uzun bo‘lsin.

7.

9 + 2	(80 − 50) + 9	(20 + 10) + 5
8 + 3	(90 − 60) + 3	(30 + 30) + 7

1.



Yodingizda tuting:

$11-2=9$ | $11-3=8$ | $11-4=7$ | $11-5=6$

2. Yechilishini tushuntiring:

$11-4=7$

1 3

$11-4=7$

4 7

3. O‘tloqda 11 ta qo‘y o‘tlab yurgan edi. 4 ta qo‘y ajratib qo‘raga olib ketildi. O‘tloqda nechta qo‘y qoldi?

4.

11 − 2 + 9	11 − 1 + 4	11 − 4 + 7
11 − 3 + 2	11 − 1 + 6	11 − 5 + 4

5. Har bir shaklning nomini ayting. Har bir shaklning nechtadan tomoni bor?

1) 2) 3) 4)

6. Aerodromda bir nechta samolyot bor edi. 5 ta samolyot uchib ketgandan so‘ng, aerodromda 6 ta samolyot qoldi. Aerodromda oldin nechta samolyot bo‘lgan?

7.

43 + 20	65 − 5	32 + 8	23 − 3
76 − 30	44 + 6	59 − 9	86 + 4

1.



Yodingizda tuting:

11 − 6 = 5 | 11 − 7 = 4 | 11 − 8 = 3 | 11 − 9 = 2

2.

11 − 6 + 5	11 − 3 + 8	11 − 9 + 6
11 − 7 + 6	11 − 8 + 7	11 − 5 + 8

3. Jadval asosida masala tuzing va uni yeching:

Bor edi	Sotildi	Qoldi
48 kg pecheniy	ertalab — 20 kg tushlikdan keyin — 10 kg	? kg

4. 8+6 □13 7+6 □14 6+5 □11
7+7 □15 9+7 □16 8+8 □14

5. Birinchi shakldan 1 ta cho‘pni shunday olingki, natijada 3 ta kvadrat qolsin. Ikkinchi shaklda esa shunday 3 ta cho‘pning o‘rnini almashtiringki, natijada 4 ta bir xil kichik kvadrat va 1 ta katta kvadrat hosil bo‘lsin.



6. Bir bidonda 11 l, ikkinchi bidonda birinchi bidondagidan 6 l kam paxta yog‘i bor. Ikkinchi bidonda necha litr yog‘ bor?

7. (80−50)+9 (20+10)+5 45−(8+7)
(90−60)+3 (30+30)+7 28−(9+3)

1.



Yodingizda tuting:

12−3=9 | 12−4=8 | 12−5=7 | 12−6=6

2. Yechishning turlicha usullarini tushuntiring:

$12-4=8$ (2 2) $\quad 12-5=7$ (2 3) $\quad 12-5=7$ (5 7)

3. Anvar 12 varaqli daftarning 6 ta varag‘ini to‘ldirdi. Daftarning to‘ldirilmagan nechta varag‘i qoldi?

4.

$11-2$	$11-4$	$12-3$	$12-5$
$11-3$	$11-5$	$12-4$	$12-6$

5. Jadval asosida masala tuzing va uni yeching:

Bor edi	Sotildi	Qoldi
12 ta velosiped	2 g‘ildirakli velosiped — 3 ta 3 g‘ildirakli velosiped — 2 ta	? ta

6.

$(80-50)+7$	$47+3-20$	$28+2-10$
$(90-40)+4$	$67+3-30$	$56+4-30$

7. $12-4 \square 8 \quad 10+2 \square 11 \quad 11-8 \square 12$

1.



Yodingizda tuting:

$12-7=5 \quad | \quad 12-8=4 \quad | \quad 12-9=3$

2. Shunday son qo‘yingki, tenglik to‘g‘ri bo‘lsin:

12 − □ = 8	11 − □ = 6	12 − □ = 6
12 − □ = 7	12 − □ = 3	11 − □ = 4

3. Avtosaroyda 12 ta yengil mashina bor edi. Ertalab undan 9 tasi belgilangan yo‘nalishlar bo‘yicha ishga chiqib ketdi. Avtosaroyda nechta mashina qoldi?

4. Birinchi kesma ikkinchi kesmadan necha santimetr qisqa? Ikkinchi kesma birinchi kesmadan necha santimetr uzun?



5. Qisqa yozuv bo‘yicha masala tuzing va uni yeching:

Televizor – 12 ta
Kompyuter – ?, 6 ta kam ? ta

6. Sonlarning ayirmasini toping:

11 bilan 4 ning, 12 bilan 5 ning, 12 bilan 7 ning, 11 bilan 8 ning.

7.

58 + 2	38 − 30	12 − 4 + 8	(12 − 3) + 4
37 + 3	43 − 40	11 − 6 + 4	(11 − 5) + 4

1.



Yodingizda tuting:

13 − 4 = 9 | 13 − 5 = 8 | 13 − 6 = 7

2. Amal ishoralarini tengliklar to‘g‘ri bo‘ladigan qilib qo‘ying:

12□7=5	8□8=16	13□4=9
11□6=5	7□5=12	13□6=7

3. Ertak kitob 12 betdan iborat. Shahloxon shu kitobning 5 betini o‘qidi. U yana kitobning necha betini o‘qishi kerak?

4. Misollarni tushuntirib yeching:



5. Quyidagi ifodalarning qiymatini toping:

9+5, 11−4, 8+8, 12−7, 9+8, 12−3, 7+5, 11−6

6.

50+(12−7)	27−(7+4)	39+(13−5)
70−(11−5)	32+(8+5)	42−(12−8)

1.



Yodingizda tuting:

13−7=6 | 13−8=5 | 13−9=4

2. Amal ishoralarini tengliklar to‘g‘ri bo‘ladigan qilib qo‘ying:

13□6=7	8□7=15	11□6=5
12□3=9	7□6=13	12□8=4

3. Qisqa yozuv bo‘yicha masalalar tuzing va ularni yeching:

1-masala	2-masala
Azizda – 13 ta tovuq Murodda – ?, 4 ta kam tovuq	Azizda – 13 ta tovuq Murodda – ?, 4 ta kam ? ta tovuq

4.

44 sm – 30 sm	46 sm – 24 sm
75 sm + 25 sm	55 dm + 20 dm

5. Misollarning javobini toping:



6. Gulzorda 13 ta oq va qizil chinnigullar ochilgan edi. Qizil chinnigullar 7 ta bo‘lsa, oq chinnigullar nechta?

7.

12–(5+4)	9+(4+5)	47+3	100–8
13–(7+2)	8+(6+4)	64+6	100–3

1.



Yodingizda tuting:

14 − 5 = 9 | 14 − 6 = 8 | 14 − 7 = 7

2.

13 − 8	9 + 3	11 − 5	(14 − 5) + 2
12 − 6	8 + 5	13 − 4	(14 − 7) + 3

3. Maktab hovlisida 14 nafar o‘quvchi o‘ynayotgan edi. Ulardan 6 nafari o‘g‘il bola bo‘lsa, necha nafari qiz bola?

4. Shakllarni daftaringizga chizing va ularni bo‘yang:

5. Qisqa yozuv bo‘yicha masala tuzing va uni yeching:

Bor edi — 8 l va 6 l sut
Ishlatildi — 7 l sut
Qoldi — ? l sut

6. Qovoqning og‘irligi 7 kg, tarvuzning og‘irligi esa undan 3 kg kam. Tarvuzning og‘irligi qancha?

7.

52 + 8	49 + 1	14 − (9 + 2)	13 − (11 − 3)
27 + 3	36 + 4	14 − (8 + 5)	13 − (12 − 4)

1.



Yodingizda tuting:

14 − 8 = 6 14 − 9 = 5

2.

7 + 6	13 − 9	7 + 3 − 4	(14 − 6) + 8
8 + 8	14 − 5	9 + 1 − 2	(14 − 8) + 8

3. Ertalab do‘konda 14 ta televizor bor edi. Kechgacha 8 ta televizor sotildi. Do‘konda nechta televizor qolgan?

4. Qulay usul bilan hisoblang.

3 + 14 + 6	7 + 13 + 2	5 + 20 + 50
8 + 12 + 3	4 + 11 + 9	6 + 30 + 40

5. Shakllarning har birida nechtadan kesma bor?



6. Taqqoslang:

8 + 7 □ 15 13 − 5 □ 9 14 − 6 □ 7

7.

9 + 5	13 − 8	60 + 40	38 − 30
8 + 6	14 − 7	90 − 50	57 + 32

1.



15 − 6 = □

15 − 5 − 1 = 9 | 15 − 9 = 6 | 15 − 6 = 9



15 = 6 + 9



Yodingizda tuting:

15 − 6 = 9 15 − 9 = 6

2.

8 + 7	7 + 7	14 − (5 + 9)	(14 − 9) + 5
9 + 3	9 + 5	13 − (9 + 4)	(14 − 8) + 4

3. Nafisa 15 yoshda. Singlisi esa undan 6 yosh kichik. Singlisi necha yoshda?

4. 14 − 8 □ 8 13 − 8 □ 5 9 + 6 □ 14

5. Misollarning yechilishini tushuntiring:





6. Maktab oshxonasiga 50 kg un keltirildi. 4 kg undan somsa, 6 kg undan shirin kulcha pishirildi. Oshxonada necha kilogramm un qoldi?

7.

68 + 2	13 − (5 + 6)	(9 + 3) − 5	(8 + 7) + 5
36 + 4	14 − (5 + 7)	(8 + 6) − 6	(9 + 8) − 7

1.



Yodingizda tuting:

15 − 7 = 8 15 − 8 = 7

2. Baliqchi daryodan 15 ta sazan va laqqa baliq tutdi. Sazan baliqlar 8 ta bo‘lsa, laqqa baliqlar nechta?

3. Misollarning yechilishini tushuntiring:

8 + 7 → 15 − 8 → 7 + 4 → 11 − 5 → 6 + 9

15 − 6 → 9 + 3 → 12 − 5 → 7 + 7 → 14 − 6

4. Qisqa yozuv bo‘yicha masala tuzing va uni yeching:

Oq kaptar — 15 ta

Kulrang kaptar — ?, 8 ta kam

5. Har bir shaklda nechtadan uchburchak bor?



6. Ko‘lda 15 ta g‘oz va ulardan 7 ta kam o‘rdak suzmoqda. Ko‘lda nechta o‘rdak bor?

7.

60 − 20	12 − (2 + 9)	(14 − 4) + 2
35 − 35	15 − (5 + 4)	(12 − 2) + 3

1.



Yodingizda tuting:

16 − 7 = 9 | 16 − 8 = 8 | 16 − 9 = 7

2.

9 + 9	14 − 5	15 − 6	6 + 6 − 2
8 + 6	13 − 5	16 − 8	8 + 8 − 6
7 + 4	15 − 8	13 − 4	7 + 7 − 4

3. Bolalar maydonchasi qurilishida 16 nafar g‘isht teruvchi, undan 7 nafar kam suvoqchi ishladi. Qurilishda necha nafar suvoqchi ishlagan?

4. Jadval asosida masala tuzing va uni yeching:

Bor edi	Yeyishdi	Qoldi
16 ta apelsin	8 ta apelsin	? ta

5. 9 + 5 □ 16 | 16 − 8 □ 13 | 13 − 6 □ 7

6. Ifoda ko‘rinishida yozing va ularni yeching:
1) 9 bilan 7 ning yig‘indisidan 6 ni ayiring;
2) 8 bilan 7 ning yig‘indisidan 5 ni ayiring.

7.

90 − 40	80 + 20	99 + 1	42 + 8
60 + 40	76 + 24	57 + 3	27 + 3

1.

Kamayuvchi	11	12	13	14	15	15	16
Ayriluvchi	9	4	5	6	7	9	8
Ayirma							

2. Birinchi qutida 16 ta, ikkinchi qutida esa undan 9 ta kam tuxum bor. Ikkala qutida nechta tuxum bor?

3. Shunday son qo‘yingki, tenglik to‘g‘ri bo‘lsin:

15 − □ = 8	7 + □ = 11	12 − □ = 9
14 − □ = 5	9 + □ = 13	16 − □ = 9

4. Misollarning yechilishini tushuntiring:





5. Qulay usul bilan hisoblang:

7 + 3 + 9	14 + 6 + 8	50 + 30 + 3
8 + 2 + 7	13 + 7 + 5	80 + 10 + 2

6. Bolalar bog‘chasiga 16 ta o‘yinchoq keltirildi. Qo‘g‘irchoqlar 8 ta bo‘lsa, koptoklar nechta?

7.

28 + 2	99 − 9	15 − (8 + 7)	(8 + 7) − 5
57 + 3	68 − 8	14 − (7 + 3)	(7 + 6) − 3

1.



17 − 9 = □

17 − 7 − 2 = 8

17 = 9 + 8

17 − 9 = 8 17 − 8 = 9

17 − □

18 − □

Yodingizda tuting:

17 − 8 = 9 17 − 9 = 8 18 − 9 = 9

2. 16 − 6 + 1 14 − 4 − 5 13 − 3 + 2 11 − 1 − 3
15 − 5 + 3 13 − 3 − 6 12 − 2 − 3 14 − 4 + 5

3. Ishchilar 18 ta xonani ta'mirlashlari kerak edi. Shu xonalarning bir nechtasini ta'mirlashgandan keyin 9 ta xona qoldi. Ishchilar nechta xonani ta'mirlashgan?

4. Jadvaldan javobi bir xil bo'lgan misollarni toping.

9 + 7	17 − 9	9 + 5	15 − 9
16 − 8	11 − 5	18 − 9	7 + 7
8 + 6	15 − 6	7 + 9	17 − 8

5. Qisqa yozuv bo'yicha masala tuzing va uni yeching:
G'isht teruvchilar — 18 ta.
Suvoqchilar — ?, 9 ta kam.

6. Feruz otasi bilan dehqon bozoridan 18 kg piyoz, undan 9 kg kam kartoshka sotib oldi. Ular hammasi bo'lib necha kilogramm sabzavot sotib olishgan?

7. 9 + 2 12 − 4 17 − (9 + 3) (9 + 9) − 7
8 + 3 15 − 7 16 − (7 + 2) (8 + 8) − 7

18 ICHIDA BIR XONALI SONLARNI AYIRISH JADVALI

1.

–	1	2	3	4	5	6	7	8	9
10	9	8	7	6	5	4	3	2	1
11		9	8	7	6	5	4	3	2
12			9	8	7	6	5	4	3
13				9	8	7	6	5	4
14					9	8	7	6	5
15						9	8	7	6
16							9	8	7
17								9	8
18									9

Namuna:

12−7=5

15−7=8

2. Namuna bo‘yicha bajaring:

7+8=15	9+7=□□	9+8=□□
8+7=15	7+9=□□	8+9=□□
15−7=8	16−9=□	17−9=□
15−8=7	16−7=□	17−8=□

3. Avtosaroyda 18 ta avtomobil turibdi. Ularning 9 tasi yuk mashinasi, qolganlari esa yengil avtomobil. Avtosaroyda nechta yengil avtomobil bor?

4. Cho‘plardan shunday 1)  2)  shakllarni tuzing. Birinchi shakldan 3 ta cho‘pni shunday olingki, 3 ta kvadrat qolsin. Ikkinchi shakldan 3 ta cho‘pni shunday olingki, 4 ta kvadrat qolsin.

5. Qisqa yozuv bo‘yicha masala tuzing va uni yeching:

Osma soat — 18 ta
Qo‘l soat — ?, 9 ta kam
? ta soat

6. Musiqa to‘garagi uchun 15 ta rubob, 10 ta dutor, 5 ta doira olib kelindi. Hammasi bo‘lib nechta musiqa asboblari olib kelingan?

7.

27+3	16−(8+7)	(15−8)+7
39+1	18−(9+9)	(17−8)+9

1. Jadvaldan javobi 4, 5, 6, 7 ga teng misollarni toping:

11−2							
11−3	12−3						
11−4	12−4	13−4					
11−5	12−5	13−5	14−5				
11−6	12−6	13−6	14−6	15−6			
11−7	12−7	13−7	14−7	15−7	16−7		
11−8	12−8	13−8	14−8	15−8	16−8	17−8	
11−9	12−9	13−9	14−9	15−9	16−9	17−9	18−9

2. Misollarning yechilishini tushuntiring:

9+4=13	8+6=□□	9+6=□□
4+9=13	6+8=□□	6+9=□□

13−9=4	14−8=□	15−9=□
13−4=9	14−6=□	15−7=□

3. Bir kitobda 18 ta, ikkinchi kitobda 9 ta ertak bor. Ikkinchi kitobdagi ertaklar birinchi kitobdagidan nechta kam? Birinchi kitobdagi ertaklar esa ikkinchi kitobdagidan nechta ko‘p?

4. Shakllarni taqqoslang. Har birida nechtadan uchburchak bor?

a) 

b) 

5. $17-9\square 18$ $18-7\square 10$ $9+9\square 18$

6. Bir ustunga sonlar yig‘indisini, ikkinchi ustunga sonlar ayirmasini yozing. Bu sonli ifodalarning qiymatlarini toping:

$16-7$ $9+8$ $18-9$ $9+9$ $17-9$ $9+7$

7. $(9+8)-7$ $17-(9+5)$ $18+2-10$

$(9+6)-5$ $18-(8+9)$ $17+3-10$

SOAT. MINUT

1.

Soatning katta mili minutni ko‘rsatadi. U bir chiziqchadan ikkinchi chiziqchaga 1 minutda o‘tadi.

Soatning kichik mili soatni necha bo‘lganini ko‘rsatadi. U bir raqamdan ikkinchi raqamgacha 1 soatda o‘tadi.

1 soat = 60 minut.

1) Soat qaysi vaqtni ko‘rsatyapti?
2) Soatning katta mili qaysi raqamni ko‘rsatyapti?
3) Soatning kichik mili qaysi raqamni ko‘rsatyapti?

2. Misollarni namuna bo‘yicha bajaring:

$$100-6=90+(10-6)=90+4=94$$

90 10

$100-7$	$100-4$	$100-9$	$100-8$
$100-3$	$100-5$	$100-2$	$100-6$

3. Do‘konda 100 dona changyutgich bor edi. Kun davomida 9 ta changyutgich sotildi. Do‘konda yana nechta changyutgich qoldi?

4. 1-shaklda nechta to‘rtburchak, 2-shaklda nechta uchburchak va to‘rtburchak bor?



5. Sayohatchi uch kunda qancha vaqt yo‘l bosib o‘tgan?



6. Qisqa yozuv bo‘yicha masala tuzing va uni yeching:

Bor edi – 20 kg xurmo
Sotildi – 10 kg xurmo
Qoldi – ? kg xurmo

7.

100−5	83+17	80+20	40+60
100−3	90+10	50+50	70+30

1. Misollarni namunaga qarab yeching:

$100-37=(100-30)-7=70-7=63$

30 7

100−57	100−62	100−46	100−87
100−28	100−26	100−64	100−78

2. Novvoyxonada 100 dona shirmoy non va patir non yopildi. Ularning 78 tasi shirmoy non. Novvoyxonada nechta patir non yopilgan?

3. Misollarni namuna bo‘yicha bajaring: 35=30+5

42=□□+□	68=□□+□	47=□□+□
56=□□+□	24=□□+□	59=□□+□

4. Jadval asosida masala tuzing va uni yeching:

Sotib olindi	Ishlatildi	Qoldi
? kg piyoz	ertalab — 22 kg kechqurun — 28 kg	20 kg

5. Har bir shaklning nechtadan tomoni va burchaklari bor?

1) 2) 3) 4) 

6. Do‘konga sotish uchun 37 juft poyabzal keltirildi. Bir kunda 15 juft poyabzal sotildi. Do‘konda yana necha juft poyabzal qoldi?

7.

42+8+9	90−50	100−27	100−24
76+4+3	57+32	100−39	100−56

1. Jadvaldan javobi bir xil bo‘lgan misollarni toping.

17−9	9+5	15−6	8+4
7+5	14−6	8+6	18−9
15−8	8+8	13−6	9+7

2. Kutubxonada 18 ta «Bilimdon» jurnali bor edi. Kutubxonachi bir nechta jurnalni o‘quvchilarga o‘qish uchun tarqatgandan keyin 8 ta jurnal qoldi. Kutubxonachi nechta jurnal tarqatgan?

3. Misollarni tushuntirib yeching:

9+7=□□	8+3=□□	9+8=□□
7+9=□□	3+8=□□	8+9=□□

16−7=□	11−8=□	17−9=□
16−9=□	11−3=□	17−8=□

4. Boshqotirmani yechsangiz, sevimli diyorimizning nomini bilib olasiz.

9+4	I	15−7	E	8+7	T	11−9	O‘	9+8	N
16−7	K	8+6	S	12−5	B	8+8	O	15−9	Z

2	6	7	8	9	13	14	15	16	17

5. Shakllarni taqqoslang:



6. Bir bog‘lamda 35 ta, ikkinchisida esa 20 ta daftar bor. Ikkinchi bog‘lamda birinchi bog‘lamdagiga qaraganda nechta kam daftar bor?

7.

14−7	11−3	8+7	7+7−4
13−9	15−6	6+6	7+7−3
18−9	16−8	8+8	7+8−5

O‘TILGANLARNI MUSTAHKAMLASH

1. Ikkita qo‘shni qo‘shiluvchini ularning yig‘indisi bilan almashtirib, qulay usul bilan hisoblang:

5+14+6	8+9+1	10+80+9
3+12+8	7+8+2	50+30+5

2. Qisqa yozuv asosida masala tuzing va uni yeching:

Bor edi — 18 kg behi
Sotildi — 9 kg behi
Qoldi — ? kg behi


18 kg

3. Ifoda ko‘rinishida yozing va ularni yeching:

1) 50 bilan 9 ning yig‘indisiga 1 ni qo‘shing;
2) 28 bilan 2 ning yig‘indisidan 10 ni ayiring;
3) 37 bilan 3 ning yig‘indisidan 20 ni ayiring;
4) 40 bilan 6 ning yig‘indisiga 4 ni qo‘shing.

4. Rasmlardan foydalanib: $4+6$, $4+7$, $6-4$, $7-6$, $(4+6)+7$, $(4+6)-7$ ifodalarni tushuntiring:

4 kg

6 kg

7 kg

5. 57, 32, 96, 48 sonlarini namunada ko‘rsatilganidek yig‘indi bilan almashtiring: $75=70+5$.

6. Pazandalik musobaqasida Ziyoda topshirilgan vazifani 20 minutda, Gulsara esa 25 minutda bajardi. Ziyoda bu vazifani Gulsaradan necha minut oldin bajargan? Gulsara bu vazifani Ziyodadan necha minut keyin bajargan?

7. 85 sm − 25 sm 73 dm + 17 dm
57 dm + 32 dm 94 so‘m − 64 so‘m

100 ICHIDA SONLARNI XONA ORQALI O‘TIB QO‘SHISH VA AYIRISH

OG‘ZAKI QO‘SHISH VA AYIRISH USULLARI

1. Hisoblang:

1)10 sonidan 7 va 2 sonlarining yig‘indisini ayiring:

$$10 - (7 + 2)$$
$$^{2}\quad\ ^{1}$$

> Qavsli ifodalarda oldin qavs ichidagi amallar bajariladi.

2) 10 − 7 − 2 ko‘rinishidagi misollarni yechishda amallar ketma-ket bajariladi: 10 − 7 − 2 = 1.

2. Tushuntirib yeching:

$10 - (5 + 3)$ $\quad$ $10 - (6 + 3)$ $\quad$ $9 - (4 + 2)$

$10 - 5 - 3$ $\quad$ $10 - 6 - 3$ $\quad$ $9 - 4 - 2$

3. Anvarda 10 ta yong‘oq bor edi. U 7 tasini ukasiga berdi, 2 tasini chaqib yedi. Anvarda nechta yong‘oq qoldi?

I usul.

1) 7 + 2 = □ ta yong‘oq yeyildi

2) 10 − 9 = □ ta yong‘oq qoldi.

II usul.

10 − 7 − 2 = 3 − 2 = 1 ta yong‘oq qoldi.

Javob: Anvarda 1 ta yong‘oq qoldi.

4. Jadval asosida masala tuzing va uni yeching:

Bor edi	Ishlatildi	Qoldi
30 kg kartoshka	ertalab — 4 kg tushlikda — 5 kg	? kg

5. Tushuntirib yeching:

20−(6+3) 40−(7+2) 50−(5+4)

6. Bolalar bog‘chasi oshxonasida 20 kg guruch bor edi. Ertalab 4 kg, tushlikda ham shuncha guruch ishlatildi. Necha kilogramm guruch qolgan?

Masalani reja asosida yeching:

1) Hammasi bo‘lib qancha guruch ishlatilgan?

4+4=□ (kg)

2) Necha kilogramm guruch qolgan?

20−8=□□ (kg)

7.

19+1	26+4	45+3	(9+6)+5
56+3	87+3	38+2	(8+9)+3

SONLI IFODALAR

1.

$35+4$ $48-5$

Bular **sonli ifodalar** yoki **ifodalar** deb ataladi.

Ifodada ko‘rsatilgan amallarning natijasi, **ifodaning qiymati** deyiladi.

$35+4=39$ 35 bilan 4 sonining yig‘indisi 39 ga teng.

$35+4$ **ifoda**, 39 **ifodaning qiymati.**

2. Ifodalarni hisoblang:

36 va 4, 48 va 30, 37 va 48 sonlarining yig‘indisi;
42 va 2, 57 va 50, 95 va 5 sonlarining ayirmasi.

3. Jadval asosida masala tuzing va uni yeching:

Bor edi	Ishlatildi	Qoldi
8 kg va 6 kg	5 kg	? kg

$8+6$, $8-6$, $(8+6)-5$ ifodalarning qiymatini hisoblab nimani topish mumkin?

4. Bog‘ga 70 tup ko‘chat o‘tqazildi. Ulardan 40 tupi gilos, 20 tupi xurmo, qolganlari esa olcha ko‘chati. Bog‘ga necha tup olcha ko‘chati o‘tqazilgan?

5. Shakllarni daftaringizga chizing. Har qaysi shaklda nechtadan uchburchak va nechtadan kvadrat bor?





6. Misollarni yeching:

58 − 4	47 + 2	60 − 3	36 + 4
58 − 40	47 + 20	60 − 30	36 + 40

7. Birinchi fermer xo‘jaligi 15 ta yangi traktor, ikkinchisi esa undan 4 ta ko‘p traktor sotib oldi. Ikkinchi fermer xo‘jaligi nechta yangi traktor sotib olgan?

SONLI IFODALARNI TAQQOSLASH

1. Bu tengsizliklar qanday hosil bo‘lgan?

$4+3 > 4+2$
$7 > 6$

$4-3 < 4-2$
$1 < 2$

2. Bir ustunga sonlar yig‘indisini, ikkinchi ustunga sonlar ayirmasini yozing. Bu sonli ifodalarning qiymatini toping:

$58-40$ | $57+3$ | $78-6$ | $40+14$ | $70+23$ | $20-3$

3. Masala tuzing va ularni yeching:



$6+2 \square 9-1$
$8 \square 8$



$3+3 \square 7-2$
$6 \square 5$

4. Qisqa yozuv bo‘yicha masala tuzing va uni yeching:

1) Bor edi — 9 ta vertolyot
Uchib ketdi — ? ta vertolyot
Qoldi — 5 ta vertolyot

2) Bor edi — 15 l sut
Ishlatildi — 4 l va 3 l sut
Qoldi — ? l sut

5. 75 dm − 25 dm 55 sm + 35 sm
45 sm + 35 sm 52 dm − 24 dm

6. Maktab sport musobaqasi uchun 49 ta sport kiyimi olib kelindi. Shulardan 20 tasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ajratildi. Yuqori sinf o‘quvchilari uchun nechta sport kiyimi qoldi?

7.

37+ 2	78− 4	26+ 4	60− 3
37+20	78−40	26+40	60−30

1. Rasm asosida misollarning javobini toping, ularni taqqoslang:

1) 

6+3 □ 7+2

2) 

8−3 □ 5−1

2. Ifodalar tuzing va ularning qiymatini toping:
35 bilan 13 ning yig‘indisi; 47 bilan 24 ning ayirmasi; 53 bilan 15 ning yig‘indisini.

3. Jadvaldan javobi bir xil bo‘lgan misollarni toping:

87 + 13	78 + 22	48 + 32	35 + 25
75 + 15	90 − 10	67 + 33	20 + 20
53 + 37	64 + 26	90 − 50	78 − 18

4. Rasmdan foydalanib: 4 + 7, 4 + 10, 7 − 4, 10 − 4, 10 − 7 ifodalar bo‘yicha masala tuzing va uni yeching:

4 kg 7 kg 10 kg

5. Shakllarni daftaringizga chizing va nomlarini yozing:





6. Avtomobil zavodi birinchi kuni 47 ta, ikkinchi kuni 3 ta ortiq mashina ishlab chiqardi. Zavod ikki kunda nechta mashina ishlab chiqargan?

7. 50 − 23 + 17 37 + 23 − 30 87 − 64 + 23

40 − 18 + 12 55 + 14 − 29 95 − 52 + 13

1. $38+5=\square\square$

5 sonini qanday qo‘shganingizni rasmdan foydalanib tushuntiring:



$38+5=\square\square$

2 3

$38+5=38+2+3=(38+2)+3=40+3=43$

2. Tushuntirib yeching:

$57+8=57+3+5=(57+3)+5=60+5=65$

3 5

$29+4$ (1 3) $\quad 64+7$ (6 1) $\quad 48+9$ (2 7) $\quad 35+6$ (5 1)

3. Maktab hovlisida 38 tup olma ko‘chatlari bor edi. Yana 4 tup anor va 5 tup olcha ko‘chati ekildi. Maktab hovlisiga jami necha tup mevali ko‘chat ekilgan?

4. Namuna bo‘yicha bajaring: $26=20+6$.

$54=50+\square$	$65=\square\square+\square$	$89=\square\square+\square$
$78=70+\square$	$29=\square\square+\square$	$37=\square\square+\square$
$43=40+\square$	$97=\square\square+\square$	$32=\square\square+\square$

5. Ikkita kesma chizing: birining uzunligi 8 sm, ikkinchisi undan 3 sm uzun bo‘lsin. Ikkinchi kesmaning uzunligi qancha?

6. 40 sm + 20 sm $\quad$ 50 dm − 10 dm

20 dm + 20 dm $\quad$ 70 sm − 30 sm

7. Qisqa yozuv bo‘yicha masala tuzing va uni yeching:

Bor edi — 39 ta stol
Olib kelindi — 4 ta stol
? ta stol

8.

45 + 7	34 + 7	57 + 5	16 + 7
29 + 9	59 + 6	86 + 5	65 + 8

1. Misollarni tushuntirib yeching:

$29 + 6 = 29 + 1 + 5 = (29 + 1) + 5 = 30 + 5 = 35$

1 5

$46 + 4 = \square\square$
$46 + 7 = \square\square$

4 3

$58 + 2 = \square\square$
$58 + 7 = \square\square$

2 5

$67 + 3 = \square\square$
$67 + 5 = \square\square$

3 2

2. Do‘konga 59 ta ikki va uch g‘ildirakli velosiped olib kelindi. Uch g‘ildirakli velosiped 29 ta bo‘lsa, nechta ikki g‘ildirakli velosiped olib kelingan?

3. Amal ishoralarini tengliklar to‘g‘ri bo‘ladigan qilib qo‘ying:

$30\square7=37$	$53\square3=50$	$70\square9=79$
$20\square6=26$	$47\square7=40$	$96\square6=90$
$80\square8=88$	$60\square1=61$	$85\square5=80$

4. Jadval asosida berilgan misollarni yeching:

25 + 6	96 − 6	42 + 9	18 − 9
67 + 8	84 + 7	68 − 8	59 + 6
59 − 9	38 + 5	39 + 4	16 − 8

5. Har qaysi shaklda nechtadan uchburchak bor?



6. Issiqxonada 39 ta atirgul ochilgan edi. Kechga borib yana 6 ta atirgul ochildi. Issiqxonada hammasi bo‘lib nechta atirgul ochilgan?

7.

35+7	28+7	45+0	75−5
38+5	69+3	54−0	29+6

1. Misolning yechilishini tushuntiring: $42-5=\square\square$



$42-5=\square\square$

2 3

$42-5=42-2-3=(42-2)-3=40-3=37$

2. Tushuntirib yeching:

$57-9=57-7-2=(57-7)-2=50-2=48$

7 2

$65-7$ 5 2

$87-9$ 7 2

$42-6$ 2 4

$97-8$ 7 1

3.

89 sm ☐ 8 dm 9 sm
62 sm ☐ 6 dm 2 sm

57 sm ☐ 5 dm 7 sm
43 dm ☐ 4 dm 3 sm

4. Yosh tomoshabinlar teatriga birinchi avtobusda 35 nafar, ikkinchi avtobusda esa undan 5 nafar kam o‘quvchi bordi. Yosh tomoshabinlar teatriga hammasi bo‘lib necha nafar o‘quvchi borgan?

5. Shakllarning nechtadan tomoni bor, ularning nomini ayting. Har bir shaklning perimetrini toping:





6. Misollarni tushuntirib yeching:



7. 63, 72, 86, 47 sonlarini namunada ko‘rsatilganidek yig‘indi bilan almashtiring: 59=50+9

8. Shunday son qo‘yingki, tenglik to‘g‘ri bo‘lsin:

48+□=53	85−□=80	59−□=50
39+□=46	63−□=60	23−□=20
53+□=62	79−□=70	98−□=90

1. Misollarni tushuntirib yeching:

71−8 = 1 + 7 — 71−8=(71−1)−7=70−7=63

64−4=□□
64−7=□□
4 + 3

87−7=□□
87−9=□□
7 + 2

38−8=□□
38−9=□□
8 + 1

2. Do‘konda 54 juft ayollar poyabzali, undan 7 juft kam erkaklar poyabzali sotildi. Necha juft erkaklar poyabzali sotilgan?

3.

43+8	18−9	32−7	54−8
64−7	16−9	13−7	73−9

4. Qavslarni shunday qo‘yingki, natija to‘g‘ri bo‘lsin:

50−7+3=40 99−70+9=20 50−22+8=20

5. Shakllarni daftaringizga chizing va ulardagi uchburchaklar sonini aniqlang.



6. Omborda 42 qop makkajo‘xori bor edi. Tushgacha 5 qop, tushdan so‘ng 4 qop makkajo‘xori do‘konga jo‘natildi. Omborda necha qop makkajo‘xori qoldi?

7.

42−2	57−7	27+ 2	38+ 2
42−7	57−9	27+20	38+20

1. Misollarning yechilishini tushuntiring:

37+48=□□

37 + 48=□□

30 7 40 8

30+40=70

7+ 8=15

70+15=85

37+53=□□

37 + 53=□□

30 7 50 3

30+50=80

7+ 3=10

80+10=90

yoki

37+48=(30+7)+(40+8)=(30+40)+(7+8)=
=70+15=85

Ikki xonali sonni ikki xonali songa qo‘shishda o‘nliklar o‘nliklarga, birliklar birliklarga qo‘shiladi.

2. Yuqori sinf o‘quvchilari 27 ta hikoya va 38 ta she’riy kitoblarni ta’mirlashdi. O‘quvchilar hammasi bo‘lib nechta kitob ta'mirlashgan?

3. Sonlarni xona birliklarining yig‘indisi ko‘rinishida ifodalang.

37=30+7 87=80+□ 15=10+□

48=40+□ 13=10+□ 38=30+□

4. Berilgan shakllar orasidan to‘g‘ri to‘rtburchaklarni toping va ularning raqamlarini ayting.

1) 2) 3) 4) 5)



5. Qisqa yozuv bo‘yicha masala tuzing va uni yeching:

1-bidonda — 17 l yog‘
2-bidonda — 28 l yog‘
? litr yog‘

6. O‘yinchoq yasash ustaxonasi ishchilari bir haftada 37 ta qo‘g‘irchoq, 53 ta ayiqcha yasashdi. Ustaxona ishchilari bir haftada hammasi bo‘lib nechta o‘yinchoq yasashgan?

7.

27+18	42−5	32+16	27+33
45−23	38+5	43+20	47+28

1. Misolning yechilishini tushuntiring:

87+13=□□□
80+10= 90
7+ 3 = 10
90+10=100 yoki
87 + 13 =(80+10)+(7+3)=90+10=100
80 7 10 3

2. Oshxonaga 57 ta katta, 43 ta kichkina choynak keltirildi. Oshxonaga hammasi bo‘lib nechta choynak keltirilgan?

3.

76+24	57−26	67+33	63−24
52+48	45+23	78+22	53+37

4. Qisqa yozuv bo‘yicha masala tuzing va uni yeching:

Bug‘doy — 47 qop
Arpa — 43 qop
? qop don

5. Misollarni namuna asosida yeching:



Namuna: 76 + 24 = 100.

6. Qanday shakllarni ko‘ryapsiz? Daftaringizga chizing va ularni bo‘yang.



7. Taqqoslang:

37+63□99	17+43□ 60	67+13□87
47+28□90	83+17□100	26+14□37

8. Ustaxona uchun 24 ta randa, 26 ta qo‘l arra sotib olindi. Ustaxona uchun hammasi bo‘lib nechta ish asboblari sotib olindi?

1. Misolning yechilishini tushuntiring: $42-15=\square\square$

$42-15=(42-10)-5=32-5=27$

10 5

2. Misollarni qulay usul bilan yeching:

$52-14$ $\quad$ $32-17$ $\quad$ $63-26$

10 4 $\quad$ 10 7 $\quad$ 20 6

3. Bolalar bog‘chasiga 52 l sut keltirildi. Ertalabki nonushtada 25 l sut ishlatildi. Necha litr sut qoldi?

4. Rasm asosida masala tuzing va uni yeching:

17 kg olma

?, 11 kg kam

5. Kerakli joylarda qavslarni shunday qo‘yingki, natijada to‘g‘ri tenglik hosil bo‘lsin:

$80-50+10=20$ $\quad$ $100-40+50=10$

$40-10+20=10$ $\quad$ $90-40+20=30$

6. Tikuvchilar bir kunda 32 ta g‘altak oq ip, undan 15 ta kam g‘altak qora ip ishlatishdi. Bir kunda jami nechta g‘altak ip ishlatilgan?

7.

$38+5$	$37+33$	$52-25$	$32-15$
$42-5$	$37+43$	$87+13$	$90-50$

O‘TILGANLARNI MUSTAHKAMLASH

1. Jadval asosida misollar tuzing va ularni yeching:

Qo‘shiluvchi	67	57	38	37	87	37	43
Qo‘shiluvchi	3	32	5	48	13	53	27
Yig‘indi							

2. «Neksiya» avtomobilining bakiga 42 litr, «Spark» avtomobilining bakiga esa undan 5 litr kam benzin quyildi. «Spark» avtomobilining bakiga necha litr benzin quyilgan?

3. 75 sm + 25 sm 64 dm + 26 dm
90 dm − 53 dm 90 sm − 37 sm

4. Bu chiziqlarning qaysi birlarini siniq chiziq deb aytish mumkin?



5.

29+6	74−9	28+7	63−7
42−6	54+7	67−8	14+8

6. Bir bo‘lak holva 17 kg, ikkinchi bo‘lak holva undan 8 kg kam. Ikkinchi bo‘lak holva necha kilogramm?

7.

58− 4	47+ 2	60− 3	36+ 4
58−40	47+20	60−30	36+40

YOZMA QO‘SHISH VA AYIRISH

1. Misolning yechilishini tushuntiring: $45+23=\square\square$

O‘nl.	Birl.
4	5
+ 2	3
6	8

$45+23=(40+20)+(5+3)=60+8=68$

Misol ustun shaklida yozib yechiladi.

1. O‘nliklar o‘nliklar tagiga, birliklar birliklar tagiga yoziladi.
2. Dastlab birliklar birliklarga qo‘shiladi.
   5 birl. + 3 birl. = 8 birl.
   8 birliklar tagiga yoziladi.
3. So‘ng o‘nliklar o‘nliklarga qo‘shiladi.
   4 o‘nl. + 2 o‘nl. = 6 o‘nl.
   6 o‘nliklar tagiga yoziladi.
4. Javob: 45 bilan 23 ning yig‘indisi 68 ga teng.



2. Misollarni tushuntirib yeching:

$\begin{array}{r} 55 \\ +\,14 \\ \hline \end{array}$ $\begin{array}{r} 45 \\ +\,23 \\ \hline \end{array}$ $\begin{array}{r} 62 \\ +\,27 \\ \hline \end{array}$ $\begin{array}{r} 73 \\ +\,25 \\ \hline \end{array}$ $\begin{array}{r} 53 \\ +\,42 \\ \hline \end{array}$

3. Yosh tabiatshunoslar issiqxonada bir tupdan 35 dona, ikkinchi tupdan 13 dona limon uzishdi. Yosh tabiatshunoslar ikkala tupdan necha dona limon uzishgan?

4. Har qaysi shaklda nechtadan uchburchak bor?



5. Qisqa yozuv asosida masala tuzing va uni yeching:

1-o‘ramda — 25 m
2-o‘ramda — 15 m 48 metr arqon
3-o‘ramda — ? m

6. Tushirib qoldirilgan toq sonlarni yozing:

19, 21, ..., ..., 27, ..., 31.

7.

$\begin{array}{r} 43 \\ +\ 16 \\ \hline \end{array}$	$\begin{array}{r} 32 \\ +\ 27 \\ \hline \end{array}$	$\begin{array}{r} 54 \\ +\ 33 \\ \hline \end{array}$	$\begin{array}{r} 67 \\ +\ 12 \\ \hline \end{array}$	$\begin{array}{r} 82 \\ +\ 13 \\ \hline \end{array}$

1. Misolning yechilishini tushuntiring: $57-26=\square\square$

O‘nl.	Birl.
5	7
2	6
3	1

$57-26=(57-20)-6=37-6=31$

Misol ustun shaklida yozib yechiladi.

1. O‘nliklar o‘nliklarning tagiga, birliklar birliklarning tagiga yoziladi.
2. Birliklardan birliklar ayiriladi.
   7 birl. − 6 birl. = 1 birl.
   1 birliklar tagiga yoziladi.
3. O‘nliklardan o‘nliklar ayiriladi.
   5 o‘nl. − 2 o‘nl. = 3 o‘nl.
   3 o‘nliklar tagiga yoziladi.
4. Javob: 57 bilan 26 ning ayirmasi 31 ga teng.

2.

$\begin{array}{r} 47 \\ -\ 16 \\ \hline \end{array}$	$\begin{array}{r} 75 \\ -\ 32 \\ \hline \end{array}$	$\begin{array}{r} 42 \\ +\ 14 \\ \hline \end{array}$	$\begin{array}{r} 87 \\ -\ 13 \\ \hline \end{array}$	$\begin{array}{r} 62 \\ +\ 16 \\ \hline \end{array}$

3. Yugurish musobaqasiga 37 nafar, uzunlikka sakrash musobaqasiga esa undan16 nafar kam o‘quvchi qatnashdi. Uzunlikka sakrash musobaqasiga necha nafar o‘quvchi qatnashgan?

4. Shakllarni daftaringizga chizing va nomini yozing.

1) 2)  3) 4)

5. Misollarni qulay usul bilan hisoblang:

1) 50 bilan 7 ning yig‘indisidan 26 ni ayiring;
2) 40 bilan 5 ning yig‘indisiga 5 ni qo‘shing.

6. Bozorga sotish uchun 47 yashik olma va undan 13 yashik kam shaftoli olib kelindi. Bozorga necha yashik shaftoli olib kelingan?

7.

67	57	96	48	77
+ 46	+ 35	+ 82	+ 32	+ 65

1. Misolning yechilishini tushuntiring: $29+32=\square\square$

O‘nl.	Birl.
2	9
+ 3	2
6	1

$29+32=(20+30)+(9+2)=50+11=61$

Misol ustun shaklida yozib yechiladi.

1. O‘nliklar o‘nliklarning tagiga, birliklar birliklarning tagiga yoziladi.
2. Birliklar birliklarga qo‘shiladi.
   9 birl. + 2 birl. = 11 birl.
   11 birl. — bu 1 o‘nl. va 1 birl.
   Birliklar ostiga 1 ni yozib, 1 o‘nlikni o‘nliklarga qo‘shib yozish uchun esda saqlab qolinadi.
3. O‘nlik o‘nlikka qo‘shiladi.
   2 o‘nl. + 3 o‘nl. = 5 o‘nl.
   5 o‘nl. + 1 o‘nl. = 6 o‘nl.
   O‘nliklar ostiga 6 yoziladi.
4. Javob: 29 bilan 32 ning yig‘indisi 61 ga teng.

2. Misollarni tushuntirib yeching:

$$\begin{array}{r} 74 \\ +\,19 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} 69 \\ +\,23 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} 87 \\ -\,13 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} 59 \\ +\,17 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} 93 \\ -\,42 \\ \hline \end{array}$$

3. Qisqa yozuv bo‘yicha masala tuzing va uni yeching:

Musiqa to‘garagiga — 53 nafar o‘quvchi
Tasviriy san’at to‘garagiga — 37 nafar o‘quvchi
?

4. Birinchi kesma ikkinchi kesmadan necha santimetr qisqa? Uchinchi kesma ikkinchi kesmadan necha santimetr uzun?



5. Misollarni tushuntirib yeching:



Namuna: 1) 29 + 32 = 61 2) 61 – 50 = 11

6. Bir xonadonda 29 kg karam, undan 9 kg kam bodring, bodringdan 12 kg ortiq pomidor tuzlandi. Necha kilogramm pomidor tuzlangan?

7.

$$\begin{array}{r} 59 \\ +\,12 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} 28 \\ +\,23 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} 78 \\ -\,55 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} 67 \\ -\,34 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} 49 \\ +\,32 \\ \hline \end{array}$$

1. Misolning yechilishini tushuntiring: $64+26=\square\square$

O‘nl.	Birl.
6	4
+ 2	6
9	0

$64+26=(60+20)+(4+6)=80+10=90$

Misol ustun shaklida yozib yechiladi.

1. O‘nliklar o‘nliklarning tagiga, birliklar birliklarning tagiga yoziladi.
2. Birliklar birliklarga qo‘shiladi.
   4 birl. + 6 birl. = 10 birl.
   Birliklar ostiga 0 ni yozib, 1 o‘nlikni o‘nliklarga qo‘shib yozish uchun esda saqlab qolinadi.
3. O‘nlik o‘nlikka qo‘shiladi.
   6 o‘nl. + 2 o‘nl. = 8 o‘nl.
   8 o‘nl. + 1 o‘nl. = 9 o‘nl.
   O‘nliklar ostiga 9 yoziladi.
4. Javob: 64 bilan 26 ning yig‘indisi 90 ga teng.

2. Misollarni tushuntirb yeching:

$$\begin{array}{r} 77 \\ +\ 13 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} 54 \\ +\ 36 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} 47 \\ -\ 16 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} 74 \\ +\ 16 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} 88 \\ -\ 27 \\ \hline \end{array}$$

3. Bir oyda tovuqlar uchun 34 kg, g‘ozlar uchun 26 kg don sarflandi. Bir oyda hammasi bo‘lib qancha don sarflangan?

4. Misollarni yeching:



5. Shakllarning nomlarini yozing.

1)  2)  3) 4)

6. Yil davomida bir qishloqda 29 ta, ikkinchi qishloqda 22 ta yangi uylar qurildi. Ikkala qishloqda bir yilda hammasi bo‘lib nechta yangi uy qurilgan?

7. Misollarni ustun shaklida yozing va amallarni bajaring:

72+21	90−58	53+37	46+24
69−27	56+34	48−16	87−66

1. Misolning yechilishini tushuntiring: 75+15=□□

O‘nl.	Birl.
7	5
+ 1	5
9	0

75+15=(70+10)+(5+5)=80+10=90

Misol ustun shaklida yozib yechiladi.

1. O‘nliklar o‘nliklarning tagiga, birliklar birliklarning tagiga yoziladi.
2. Birliklar birliklarga qo‘shiladi.
   5 birl. + 5 birl. = 10 birl.
   10 birl. — bu 1 o‘nl. va 0 birl.
   Birliklar ostiga 0 ni yozib, 1 o‘nlikni o‘nliklarga qo‘shib yozilishi esda saqlab qolinadi.
3. O‘nlik o‘nlikka qo‘shiladi.
   7 o‘nl. + 1 o‘nl. = 8 o‘nl.
   8 o‘nl. + 1 o‘nl. = 9 o‘nl.
   O‘nliklar ostiga 9 yoziladi.
4. Javob: 75 bilan 15 ning yig‘indisi 90 ga teng.

2.

$\begin{array}{r} 65 \\ +\ 25 \\ \hline \end{array}$	$\begin{array}{r} 90 \\ -\ 40 \\ \hline \end{array}$	$\begin{array}{r} 45 \\ +\ 45 \\ \hline \end{array}$	$\begin{array}{r} 84 \\ -\ 72 \\ \hline \end{array}$	$\begin{array}{r} 55 \\ +\ 35 \\ \hline \end{array}$

3. Uchta bo‘g‘indan iborat siniq chiziq chizing: Birinchi bo‘g‘inning uzunligi 3 sm, ikkinchisiniki 2 sm, uchinchisiniki esa 4 sm bo‘lsin. Birinchi bo‘g‘in ikkinchi bo‘g‘indan necha santimetr uzun, ikkinchi bo‘g‘in esa uchinchi bo‘g‘indan necha santimetr qisqa?

4. Jadval asosida masala tuzing va uni yeching:

Bor edi	Keltirildi	Bo‘ldi
20 litr benzin	Yana 20 l benzin	? litr

5. Amal ishoralarini tengliklar to‘g‘ri bo‘ladigan qilib qo‘ying:

32□29=61	45□23=68	87□13=100
57□26=31	42□15=27	37□53= 90

6. Mebel do‘koniga 25 ta stol, 15 ta shkaf keltirildi. Do‘konga hammasi bo‘lib nechta mebel keltirilgan?

7.

$\begin{array}{r} 58 \\ +\ 32 \\ \hline \end{array}$	$\begin{array}{r} 69 \\ -\ 39 \\ \hline \end{array}$	$\begin{array}{r} 67 \\ +\ 23 \\ \hline \end{array}$	$\begin{array}{r} 90 \\ -\ 40 \\ \hline \end{array}$	$\begin{array}{r} 47 \\ +\ 43 \\ \hline \end{array}$

1. Maktab kutubxonasiga 38 ta hikoya, 27 ta ertak kitob keltirildi. Kutubxonaga hammasi bo‘lib nechta kitob keltirilgan?

2. Misollarning javobini toping:

65+25	32−5	48+5	57−26

3. Hayvonot bog‘idagi ikkita akvariumda baliqlar bor. Ularning birida 20 ta baliq, ikkinchisida birinchi akvariumdagidan 5 ta kam baliq bor. Ikkinchi akvariumda nechta baliq bor?



4.

37 + 48	65 + 27	39 + 37	96 − 14	83 − 42

5. Har qaysi ko‘pburchakning nechtadan tomoni, nechtadan burchagi, nechtadan uchi bor?

1) 

2) 

3)

4) 

6. Tushirib qoldirilgan juft sonlarni yozing:
18, 20, ..., ..., 26, ..., 30.

7. Misollarni ustun shaklida yozing, amallarni bajaring:

32+48	56−31	32+29	21+52
96−64	61+28	57−26	36−21

1. Misolning yechilishini tushuntiring: $27+3=\square\square$



+



1. Birliklar birliklarga qo‘shiladi.
   7 birl. + 3 birl. = 10 birl.
   10 birl. — bu 1 o‘nl. va 0 birl. Birliklar ostiga 0 ni yozib, 1 o‘nlikni o‘nliklar tagiga qo‘shib yoziladi.
2. O‘nlikka 1 o‘nlikni qo‘shib yoziladi.
   2 o‘nl. + 1 o‘nl. = 3 o‘nl.
3. Javob: 27 bilan 3 ning yig‘indisi 30 ga teng.

2. Misollarni tushuntirib yeching:

$$\begin{array}{r} 47 \\ +\ 3 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} 67 \\ -\ 13 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} 58 \\ +\ 2 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} 76 \\ +\ 4 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} 54 \\ -\ 33 \\ \hline \end{array}$$

3. Kitob javonining birinchi qatoriga 37 ta, ikkinchi qatoriga esa undan 3 ta ortiq kitob joylandi. Javonning ikkala qatorida hammasi bo‘lib nechta kitob joylangan?

4. Qisqa yozuv bo‘yicha masala tuzing va uni yeching:
Qora qo‘y — 17 ta
Jigarrang qo‘y — ?, 3 ta ortiq ? ta

5. Misollarning javobini o‘sib borish tartibida yozing:



6. Kitob 18 betli edi. Saidbek shu kitobning 9 betini o‘qib bo‘ldi. U yana necha bet o‘qishi kerak?

7.

62+8	56−36	57+3	46+4
97+3	87−46	38+2	24+6

1. Misolning yechilishini tushuntiring: 30−3=□□

O‘nl.	Birl.
3	0
	3
2	7

30−3=20+(10−3)=20+7=27

Misol ustun shaklida yozib yechiladi.

1. Birliklardan birliklar ayiriladi.
   0 dan 3 ni ayirib bo‘lmaydi. 3 o‘nlikdan 1 o‘nlikni olamiz (unutib qo‘ymaslik uchun 3 raqamining ustiga nuqta qo‘yiladi).
   1 o‘nlik = 10 birlik
   10 birl. − 3 birl. = 7 birl.
   Birliklar tagiga 7 yoziladi.
2. O‘nliklardan o‘nliklar ayiriladi.
   3 ta o‘nlik bor edi, undan birliklarni ayirish uchun 1 o‘nlikni oldik. 2 o‘nlik qoldi.
   O‘nliklar ostiga 2 yoziladi.
3. Javob: 30 bilan 3 ning ayirmasi 27 ga teng.

2. Misollarni ustun shaklida yozib, hisoblang:

40−6	50−4	80−8	27+3

3. Ikki qishloq orasidagi masofa 25 km. Velosipedchilar bir-biriga qarab yo‘lga tushdi. Ulardan biri uchrashguncha 13 km yo‘lni bosib o‘tdi. Ikkinchi velosipedchi qancha yo‘l yurgan?



4. Qulay usul bilan hisoblang:

6+4−10 8+9+1 50+40+7

5. Misollarning yechilishini tushuntiring:

67+3 → 70−40 → 30+48 → 78+22

38+5 → 43−14 → 29+32 → 61+39

6. Toshkentga uchib kelgan bir samolyotda 50 nafar, ikkinchi samolyotda esa undan 4 nafar kam sayyoh keldi. Ikkinchi samolyotda necha nafar sayyoh kelgan?

7. Misollarni ustun shaklida yozib hisoblang:

20−3 24+6 75+15 90−8

1. Misolning yechilishini tushuntiring: 50−24=□□

O‘nl.	Birl.
5	0
− 2	4
2	6

50−24=(50−20)−4=30−4=26

Misol ustun shaklida yozib, yechiladi.

1. Birliklardan birliklar ayiriladi.
   0 dan 4 ni ayirib bo‘lmaydi. 5 o‘nlikdan 1 o‘nlikni olamiz (unutib qo‘ymaslik uchun 5 raqamining ustiga nuqta qo‘yiladi).
   1 o‘nlik = 10 birlik
   10 birl. − 4 birl. = 6 birl.
   Birliklar tagiga 6 yoziladi.
2. O‘nliklardan o‘nliklar ayiriladi.
   5 ta o‘nlik bor edi, undan birliklarni ayirish uchun 1 o‘nlikni oldik. 4 o‘nlik qoldi.
   4 o‘nl. − 2 o‘nl. = 2 o‘nl.
   O‘nliklar ostiga 2 yoziladi.
3. Javob: 50 bilan 24 ning ayirmasi 26 ga teng.

2.

70 − 34	45 + 23	80 − 54	75 + 15	30 − 14

3. Akbar bilan Anvar orasidagi masofa 57 m. Ularning har biri qarama-qarshi tomonga qarab 20 m dan yugurganidan so‘ng, ular orasidagi masofa qancha bo‘ladi?

4.

Kamayuvchi	30	40	60	70	50	80	90
Ayriluvchi	16	15	27	36	34	56	48
Ayirma							

5. Misollarni namunada ko‘rsatilgandek yeching:

$14-6 \square 12-8$

$8 > 4$

$14-6 > 12-8$

$38+5 \square 67+3 \quad 42-5 \square 42-15 \quad 25+13 \square 58-15$

6. Do‘konda 80 ta rasm daftar bor edi. Kun davomida 36 ta rasm daftar sotildi. Do‘konda nechta rasm daftar qolgan?

7. Qavslarni shunday qo‘yingki, tengliklar to‘g‘ri bo‘lsin.

$40-9+11=20 \qquad 40-6+2=32$

$40-9+11=42 \qquad 60-20+7=33$

1. Misolning yechilishini tushuntiring: $52-24=\square\square$

O‘nl.	Birl.
5	2
− 2	4
2	8

$52-24=(52-20)-4=32-4=28$

Misol ustun shaklida yozib, yechiladi.

1. Birliklardan birliklar ayiriladi.
   2 ta birlikdan 4 ta birlikni ayirib bo‘lmaydi. 5 o‘nlikdan 1 o‘nlik olinadi (unutib qo‘ymaslik uchun 5 raqami ustiga nuqta qo‘yiladi).
   1 o‘nlik va 2 birlik — bu 12 birlik
   12 birl. − 4 birl. = 8 birl.
   Birliklar tagiga 8 yoziladi.
2. O‘nliklardan o‘nliklar ayiriladi.
   5 ta o‘nlik bor edi, undan birliklarni ayirishda 1 ta o‘nlikni oldik. 4 o‘nlik qoldi.
   4 o‘nl. − 2 o‘nl. = 2 o‘nl. O‘nliklar tagiga 2 yoziladi.
3. Javob: 52 bilan 24 ning ayirmasi 28 ga teng.

2.

63 − 45	47 + 35	72 − 27	32 + 24	80 − 59

3. Jadval asosida masala tuzing va uni yeching:

Bor edi	Sotildi	Qoldi
50 qop guruch	tushgacha — 25 qop tushdan keyin — 20 qop	? qop

4. $80+15\square 80+11$ $\quad$ $30-7\square 20+3$

$52-24\square 50-24$ $\quad$ $27-3\square 27+3$

5. Har bir shaklning tomonlari uzunligini o‘lchang:

1) 

2)

6. Bir xo‘jalikda 22 ta, ikkinchi xo‘jalikda undan 14 ta kam kombayn ta’mirlandi. Ikkinchi xo‘jalikda nechta kombayn ta’mirlangan?

7. Misollarni ustun shaklida yozib, amallarni bajaring:

32 − 14	64 − 12	52 − 34	40 − 4
60 − 34	55 + 35	48 + 22	20 − 6

1. Misollarni tushuntirib yeching:

80 − (20 + 30)	(60 + 40) − 50	(43 + 27) + 9
70 − (30 + 30)	(60 − 40) + 40	(96 − 34) + 8

Namuna: (+) − 0 = 0

\+ ——— − ——— 0 / 0

2. Do‘konga sotish uchun 42 ta chang‘i va chana olib kelindi. Ulardan 24 tasi chang‘i edi. Do‘konga nechta chana olib kelingan?

3.

55 sm + 25 sm	48 dm − 26 dm
64 dm − 32 dm	49 sm + 21 sm

4. Qisqa yozuv bo‘yicha masala tuzing va uni yeching:

1-fermada – 30 ta sigir

2-fermada – ?, 14 ta kam sigir ? ta

5. Manzilga yetib borish uchun qaysi yo‘l to‘g‘ri?



6. Ikkita kesma chizing. Birining uzunligi 12 sm, ikkinchisi undan 4 sm qisqa bo‘lsin. Ikkinchi kesmaning uzunligi qancha?

7.

65 + 25	55 + 35	86 − 24	37 + 53	98 − 17

O‘TILGANLARNI MUSTAHKAMLASH

1. Bir to‘p matodan kostumga 30 m, shimga 24 m, nimcha tikishga kostum bilan shim uchun qancha mato ketgan bo‘lsa, shundan 34 m kam mato ishlatildi. Nimcha tikish uchun qancha mato ishlatilgan?

Masalani reja bo‘yicha yeching:

1) Kostum bilan shimga qancha mato ketgan?
30 + 24 = □□ (metr mato)

2) Nimcha tikish uchun qancha mato ketgan?
54 − 34 = □□ (metr mato)

2.

42 − 15 □ 57 − 26	53 + 37 □ 80 − 30
29 + 32 □ 90 − 50	64 + 25 □ 47 − 26

3. Jadval asosida misol tuzing va uni yeching:

Qo‘shiluvchi	58	77	64	37	72	26	53
Qo‘shiluvchi	32	13	26	53	18	64	37
Yig‘indi							

4. Misollarni namunada ko‘rsatilganidek bajaring:
$57+24-35=46$

$$\begin{array}{r} 57 \\ +\ 24 \\ \hline 81 \end{array} \qquad \begin{array}{r} 81 \\ -\ 35 \\ \hline 46 \end{array}$$

$47+12-25$ $\quad$ $90-55+14$ $\quad$ $68+13-35$

$68-12+10$ $\quad$ $80-37+17$ $\quad$ $57+13-23$

5. Har bir shaklning nechtadan tomoni va burchaklari bor? Shakllarning nomini yozing.

1)  2) 3)  4) 5)

6. O‘ramda 42 m sim bor edi. Bir ish kuni davomida simdan bir necha metr qirqib olindi va o‘ramda 14 m sim qoldi. O‘ramdan necha metr sim qirqib olingan?

7. Misollarni yeching:

$$\begin{array}{r} 48 \\ +\ 32 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} 79 \\ -\ 37 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} 53 \\ +\ 27 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} 46 \\ -\ 35 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} 59 \\ +\ 21 \\ \hline \end{array}$$

HARFLI IFODALAR

1.



Bobur ko‘rsatayotgan ifodadagi bo‘sh katakcha o‘rniga Nafisa, Gulbahor, Anvar va Ulug‘beklar qo‘lidagi raqamlarni qo‘yib ifoda tuzing va ularning qiymatlarini toping. Masalan: 3+5=8. «Darcha»ga boshqa sonlarni qo‘ying va hosil bo‘lgan ifodalarning qiymatini hisoblang:

□+8 □+9 15−□ □+16

Matematikada «darchalar» o‘rniga kichik lotin harflari qo‘yiladi. Ularning o‘qilishi va yozilishi quyidagicha:

Masalan: **a** harfi **«a»** deb, **b** harfi **«be»** deb, **k** harfi **«ka»** deb o‘qiladi.

Demak, a=9, a=8 bo‘lsa, a+7 yoki 7+a ifodaning qiymatini bunday topish mumkin:

9+7=16 yoki 7+9=16; 8+7=15 yoki 7+8=15.

Agar a=6, a=12 bo‘lsa, a+8 ifodaning qiymatini toping:

Namuna: 6+8=14; 12+8=20.

2.

Keltirildi	Ta’mirlandi
43 ta mashina	1-kuni — 20 ta mashina 2-kuni —12 ta mashina

Yana nechta mashina ta’mirlanishi kerak?
Yechish:
1) 20 + 12 = □□ ta’mirlangan mashina.
2) 43 − 32 = □□ ta’mirlanishi kerak bo‘lgan mashina.

3.

18 + 5	17 + 28	32 − 15	87 + 13
32 − 5	17 + 43	52 − 25	76 + 24

4. Nechta shakl borligini toping:

5. Ifodalar tuzing va ularning qiymatlarini toping:

76 va 4, 37 va 53, 28 va 5 sonlarining yig‘indisi;
42 va 5, 32 va 15, 38 va 30 sonlarining ayirmasi.

6. Maktabdagi kashtachilik to‘garagiga 58 nafar, musiqa to‘garagiga esa 32 nafar o‘quvchi qatnashmoqda. Ikkala to‘garakka hammasi bo‘lib necha nafar o‘quvchi qatnashmoqda?

7.

77 − 65	23 + 45	84 − 72
32 + 14	86 − 34	61 + 15

1. Misollarni tushuntirib yeching:
$a+49$ $91-b$ ko‘rinishidagi ifodalar

1)



$8+49=\square\square$
$2+49=\square\square$
$4+49=\square\square$
$6+49=\square\square$

2)



$91-6=\square\square$
$91-4=\square\square$
$91-3=\square\square$
$91-9=\square\square$

2.

a	38	46	27	28	39	37	49
a + 7							

Namuna: $38 + 7 = 38 + (2 + 5) = (38 + 2) + 5 = 45$

b	47	35	28	24	43	52	13
56 – b							

3. Ko‘chaning o‘ng tomonida 35 ta uy, chap tomonida undan 7 ta kam uy bor. Ko‘chaning chap tomonida nechta uy bor?
Masalaning savolini shunday o‘zgartiringki, u ikki amal bilan yechiladigan bo‘lsin.

4. 1) $a = 14$, $a = 8$, $a = 47$ bo‘lsa, $a + 8$ ifodaning qiymatini toping;
2) $b = 13$, $b = 18$, $b = 44$ bo‘lsa, $b - 6$ ifodaning qiymatini toping.

5. Misollarni tushuntirib yeching:



6. Qisqa yozuv bo‘yicha masala tuzing va uni yeching:

1) Katak daftar – 32 ta
Bir chiziqli daftar – ?, 14 ta kam

2) Katak daftar – 32 ta
Bir chiziqli daftar – ?, 14 ta kam
? ta daftar

7. Har bir shaklning perimetrini toping:





8. Suzish musobaqasida 48 nafar, uzunlikka sakrash musobaqasida esa 18 nafar o‘quvchi qatnashmoqda. Ikkala musobaqada hammasi bo‘lib necha nafar o‘quvchi qatnashmoqda?

9. Ifodalar tuzing va ularning qiymatini toping:
1) 32 va 14, 57 va 23, 61 va 15 sonlarining yig‘indisi;
2) 78 va 36, 86 va 34, 89 va 64 sonlarining ayirmasi.

TENGLAMA. TENGLAMANI YECHISH

1. $27+x=27$ ko‘rinishidagi tenglamani yeching.

x (iks) harfi bilan topilishi kerak bo‘lgan noma’lum son belgilanadi.

$27+x=27$ — **bu tenglama**.

Tenglama quyidagicha yechiladi: tenglik to‘g‘ri bo‘lishi uchun x ning o‘rniga qanday sonni qo‘yish kerakligini bilib olish kerak. Bu son 0, chunki 27 ga 0 ni qo‘shganda 27 hosil bo‘ladi. Shunda tenglik to‘g‘ri bo‘lganini bilish mumkin.

Tenglamaning yechilishi bunday yoziladi:

$27+x=27$	Tekshirish:
$x=27-27$	$27+0=27$
$x=0$	$27=27$

2. a) Yig‘indidan ma’lum bo‘lgan qo‘shiluvchini ayirganda noma’lum qo‘shiluvchi hosil bo‘lganini tushuntiring:

$7+8=15$ $\quad$ $15-7=8$ $\quad$ $15-8=7$

b) Noma’lum qo‘shiluvchini toping:

$\square+3=10$ $\quad$ $9+\square=14$

$x+7=12$

3. Tenglamalarni yeching va natijani tekshiring:

$35+x=70$ $\quad$ $14+x=24$ $\quad$ $25+x=50$

4. Jadval asosida masala tuzing va uni yeching:

Bor edi	Ishlatildi	Qoldi
40 kg kartoshka	? kg	27 kg

5. Daftaringizga chizing va to‘g‘ri burchakni aniqlang:

1) 
2)
3) 
4) 

6. Hovlida 8 ta tovuq donlab yurgan edi. Yana bir nechta tovuq kelib qo‘shilganidan keyin ular 13 ta bo‘ldi. Nechta tovuq kelib qo‘shilgan?

7. Tenglamalarni yeching va natijani tekshiring:

$24+x=30$ $x+15=40$ $13+x=20$

1. Tenglamaning yechilishini tushuntiring: $35-x=30$

$35-x=30$

$x=35-30$

$x=5$

Tekshirish:

$35-5=30$

$30=30$

2. a) Kamayuvchidan ayirmani ayirganingizda noma’lum ayriluvchi hosil bo‘lganini tushuntiring:

$40-7=33$ $40-33=7$ $33+7=40$

b) noma'lum ayriluvchini qanday topish mumkinligini tushuntiring:

$20 - \square = 17$ $\qquad$ $20 - \square = 3$



$12 - x = 5$

3. Tenglamalarni yeching va natijalarni tekshiring:

$17 - x = 9$ $\qquad$ $19 - x = 10$ $\qquad$ $28 + x = 48$

$18 - x = 8$ $\qquad$ $35 - x = 30$ $\qquad$ $12 + x = 30$

4. Avtobusda 37 nafar yo'lovchi ketayotgan edi. Bekatda bir nechta yo'lovchi tushgandan so'ng 30 nafar yo'lovchi qoldi. Avtobus bekatida necha nafar yo'lovchi tushgan?

5. Jadvaldagi ifodaning qiymatini toping:

Kamayuvchi	22	32	37	47	80	28	56
Ayriluvchi	5	15			40	20	
Ayirma	17		25	27			12

Namuna: $22 - 5 = 17$

6. Duradgor 27 ta taxtani arralashi kerak edi. U bir nechta taxtani arralagandan so'ng 7 ta taxta qoldi. Duradgor nechta taxtani arralagan?

7. Tenglamalarni yeching va natijalarni tekshiring:

$42 - x = 30$ $\qquad$ $36 + x = 59$ $\qquad$ $65 - x = 42$

1. Tenglamaning yechilishini tushuntiring: $x - 3 = 7$

$x - 3 = 7$ Tekshirish:

$x = 7 + 3$ $10 - 3 = 7$

$x = 10$ $7 = 7$

2. a) Yozuvlarni qarang va ayirmaga ayriluvchini qo‘shganda noma’lum kamayuvchi hosil bo‘lganini tushuntiring:

$10 - 3 = 7$ $7 + 3 = 10$ $3 + 7 = 10$

b) noma’lum kamayuvchini qanday topish mumkinligini tushuntiring:

$\square - 7 = 8$ $\square - 12 = 28$ $\square - 9 = 6$

3. Tenglamalarni yeching va natijani tekshiring:

$x - 6 = 9$ $x - 9 = 10$ $x - 5 = 25$

4. Rasm bo‘yicha masala tuzing va uni yeching:

? kg

18 kg

14 kg

52 kg

5. Shunday sonlar qo‘yingki, yozuvlar to‘g‘ri bo‘lsin:

$37 + 33 > 37 - \square$ $46 - 40 < \square - 16$

6. Agar $a = 6$, $a = 28$, $a = 34$ bo‘lsa, $a + 4$ ifodaning qiymatini toping.

7. $72 + 27 = 99$ $42 \square 24 = 18$ $83 \square 16 = 99$

$90 \square 69 = 21$ $37 \square 25 = 62$ $76 \square 24 = 52$

1. Tenglamaning yechilishini tushuntiring: $x+56=70$

$x+56=70$ Tekshirish:

$x=70-56$ $14+56=70$

$x=14$ $70=70$

Qo‘shiluvchilardan bittasi noma’lum bo‘lsa, yig‘indidan ma'lum bo‘lgan qo‘shiluvchini ayirish kerak.

Namuna: $37+x=47$ Tekshirish:

$x=47-37$ $37+10=47$

$x=10$ $47=47$

2. Tenglamalarni yeching va natijani tekshiring:

$x+8=12$ $46+x=90$ $x+9=29$

3. Jadval asosida ifoda tuzing va ularni yeching:

Qo‘shiluvchi	47		35	24	56		64
Qo‘shiluvchi		26		31		32	
Yig‘indi	74	60	70		80	61	90

4. Har bir sonni ikkita bir xil qo‘shiluvchi yig‘indisiga almashtiring: 8, 10, 12, 14, 16, 18.

Namuna: $8=4+4$

5. Shakllarning har birida nechta uchburchak, nechta to‘rtburchak bor?







6. Bog‘bon bir tup xurmodan 40 kg, ikkinchi tup xurmodan esa bir necha kilogramm hosil olgandan keyin hosil 87 kg bo‘ldi. Bog‘bon ikkinchi tupdan necha kilogramm xurmo olgan?

7. Misollarni yeching:

$$\begin{array}{r} 35 \\ +\ 13 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} 50 \\ -\ 16 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} 63 \\ +\ 27 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} 47 \\ -\ 16 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} 32 \\ +\ 29 \\ \hline \end{array}$$

1. Tenglamaning yechilishini tushuntiring: $69 - x = 23$

$69 - x = 23$
$x = 69 - 23$
$x = 46$

Tekshirish:
$69 - 46 = 23$
$23 = 23$

Ayriluvchi noma’lum bo‘lsa, kamayuvchidan ayirmani ayirish kerak.

Namuna: $57 - x = 17$
$x = 57 - 17$
$x = 40$

Tekshirish:
$57 - 40 = 17$
$17 = 17$

2. Avtosaroyda 49 ta avtobus bor edi. Ulardan bir nechtasi belgilangan yo‘nalishlar bo‘yicha yo‘lga chiqib ketgandan so‘ng, 17 ta avtobus qoldi. Avtosaroydan nechta avtobus yo‘nalishlar bo‘yicha yo‘lga chiqib ketgan?

3. Jadval asosida misol tuzing va uni yeching:

Kamayuvchi	45		59		70	69	54
Ayriluvchi		24		12	56	17	
Ayirma	40	41	43	17			27

4. Tenglamalarni yeching va natijani tekshiring:

$68 - x = 37$ $\quad$ $49 - x = 23$ $\quad$ $76 - x = 42$

5. Qisqa yozuv asosida masala tuzing va uni yeching:

Bor edi — 58 ta daftar
Sotildi — x ta daftar
Qoldi — 27 ta daftar

6. Agar $b=7$, $b=3$, $b=9$ bo‘lsa, $90-b$ ifodaning qiymatini toping.

7.
$$\begin{array}{r} 48 \\ +\,32 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} 65 \\ -\,14 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} 37 \\ +\,23 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} 79 \\ -\,55 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} 29 \\ +\,12 \\ \hline \end{array}$$

1. Tenglamaning yechilishini tushuntiring: $x-24=41$

$x - 24 = 41$ $\qquad$ Tekshirish:
$x = 41 + 24$ $\qquad$ $65 - 24 = 41$
$x = 65$ $\qquad$ $41 = 41$

Kamayuvchi noma’lum bo‘lsa, uni topish uchun ayirmaga ayriluvchini qo‘shish kerak.

2. Tenglamalarni yeching:

$x - 7 = 12$ $\quad$ $x - 8 = 9$ $\quad$ $x - 9 = 50$

3. Do‘konga sotish uchun bir nechta televizor olib kelindi. Kechgacha 14 ta televizor sotilgandan so‘ng, 31 ta televizor qoldi. Do‘konga dastlab nechta televizor olib kelingan?

4. Namuna bo‘yicha bajaring: $24=12+12$.

$22 = 11 + \square\square$ $\quad$ $48 = 24 + \square\square$ $\quad$ $66 = 33 + \square\square$
$44 = 22 + \square\square$ $\quad$ $64 = 32 + \square\square$ $\quad$ $88 = 44 + \square\square$

5. Har bir siniq chiziqning uzunligini o‘lchang:



6. Ikki qopda jami 38 kg lavlagi bor. Agar birinchi qopda 21 kg lavlagi bo‘lsa, ikkinchi qopda necha kilogramm lavlagi bor?

7. Tenglamalarni yeching va natijani tekshiring:

$x - 14 = 31$	$x - 21 = 42$	$56 - x = 43$
$69 - x = 43$	$28 + x = 59$	$x - 15 = 25$

O‘TILGANLARNI MUSTAHKAMLASH

1. Shunday sonni qo‘yingki, tenglik to‘g‘ri bo‘lsin:

$28 - \square = 20$	$34 + \square = 40$	$75 - \square = 70$
$67 + \square = 70$	$89 - \square = 80$	$83 + \square = 90$
$43 + \square = 50$	$98 - \square = 90$	$38 + \square = 40$

2. Qisqa yozuv bo‘yicha masala tuzing va uni yeching:

1) Bor edi — 58 kg kartoshka
Ishlatildi — 18 kg kartoshka
Qoldi — ? kg kartoshka

2) Bor edi — 58 kg kartoshka
Ishlatildi — ? kg kartoshka
Qoldi — 40 kg kartoshka

3. Rasm asosida masala tuzing va uni yeching:

Terak daraxti qayin daraxtidan necha metr baland? Sada qayin daraxtidan necha metr past? Qayin daraxti sadadan necha metr baland?

4. Hisoblang:

30 sm + 24 sm 80 dm − 54 dm

60 dm − 20 dm 50 sm + 20 sm

5. Tenglamalarni yeching va natijalarni tekshiring:

$x + 24 = 56$ $80 - x = 56$ $x - 24 = 56$

6. Shakllarni daftaringizga chizing va bo‘yang: